

ISSN: 2181-4120

Scientific Journal

# GOLDEN BRAIN

*Social Sciences & Humanities*



**Volume 2, Issue 16**



[webgoldenbrain.com](http://webgoldenbrain.com)

**2024/16  
September**

ISSN 2181-4120

VOLUME 2, ISSUE 16

SEPTEMBER 2024



<http://webgoldenbrain.com/>

**“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL  
VOLUME 2, ISSUE 16, SEPTEMBER, 2024**

**EDITORIAL BOARD**

**G. Kholmurodova**

*Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**A. Madaliev**

*Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University*

**G. Sotiboldieva**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Rashidova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University*

**D. Darmonov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**X. Abduxakimova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Ruzmetov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan*

**M. Yusupova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**M. Kambarov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University*

**S. Sadaddinova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies*

**M. Fayzullaev**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University*

**Z. Muminova**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**B. Kuldashov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**Kh. Askarov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**S. Nazarova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University*

**O. Rahmonov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**G. Tangirova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**Z. Koryogdiev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University*

**S. Ubaydullaev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology*

**R. Yuldasheva**

*Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**M. Yuldasheva**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University*

***Editorial Secretary: J. Eshonkulov***

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827100>**

## TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIMNING O'RNI

**Asqarxo'jaeva Movluda Saidmuxammadzokir qizi**

Toshkent shaxridagi Puchon universiteti rektor maslaxatchisi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola mediata'larning zamonaviy ta'lif tizimidagi o'rnnini tahlil qiladi. Mediata'lif axborot va kommunikatsiya texnologiyalari tez rivojlanayotgan davrda ta'lif jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Maqolada media savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ijodiy salohiyatni yuksaltirish va axborot madaniyatini shakllantirish kabi mediata'larning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Mediata'lif orqali o'quvchilar OAVni tahlil qilish, feyk yangiliklarni aniqlash va ijodiy mahsulot yaratishga o'rgatiladi. Shu bilan birga, mediata'larning ta'lif jarayonida global va milliy miqyosda qanday ahamiyat kasb etishi va kelajakdagi o'rni haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Mediata'lif, media savodxonligi, axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash, ijodiy salohiyat, ta'lif texnologiyalari, OAV, feyk yangiliklar.

**Kirish.** Hozirgi globallashgan dunyoda axborot oqimlari juda tez o'sib bormoqda va zamonaviy ta'lif tizimiga ham bevosita ta'sir qilmoqda. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining bu tezkor rivoji media bilan bog'liq o'quv dasturlarining ahamiyatini oshirdi. Mediata'lif ta'larning muhim qismi sifatida qaralib, talabalarni media muhitida to'g'ri harakat qilish, media kontentni tushunish, tanqidiy yondashuvni shakllantirish va axborot oqimlarini to'g'ri boshqarishga o'rgatadi.

**Mediata'lif tushunchasi.** Mediata'lif insonlarni media bilan bog'liq axborotlarni qabul qilish, tahlil qilish va to'g'ri ishlov berish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yo'nalish o'quvchilarga ommaviy axborot vositalarini tahlil qilishni, ularning ta'sirini tushunishni va media vositalari orqali o'z g'oyalarini ifodalashni o'rgatadi.

Mediata'lim nafaqat o‘quvchilarning texnik bilimlarini oshiradi, balki ular orqali media mahsulotlarni qanday qilib to‘g‘ri baholashni, manipulyatsiya usullarini aniqlashni ham o‘rgatadi. Bunda o‘quvchilarga tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhim rol o‘ynaydi.

Mediata'lim bir necha muhim yo‘nalishlarda ta’lim tizimiga hissa qo‘shadi:

### **1. Media savodxonligi**

Axborot oqimining tez o‘zgarishi sharoitida media savodxonligi zaruratga aylanmoqda. O‘quvchilarning media mahsulotlarini tushunish, ularni mantiqan tahlil qilish, haqiqat va yolg‘onni ajratish qobiliyatları mediata'lim orqali rivojlantiriladi. Bu orqali feyk yangiliklarni aniqlash ko‘nikmasi ham oshiriladi.

### **2. Tanqidiy fikrlash**

Mediata'lim tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilar media mahsulotlarini tahlil qilish orqali ulardagagi manipulyatsiya usullarini o‘rganadilar va o‘z fikrlarini shakllantirishda aniqroq qarorlar qabul qiladilar. Mediata'lim ularni axborot oqimlarida mustaqil va mantiqiy fikrlashga undaydi.

### **3. Ijodiy salohiyat**

Mediata'lim faqat axborotni qabul qilish va tahlil qilish bilan cheklanmay, o‘quvchilarni o‘z media mahsulotlarini yaratishga ham rag‘batlantiradi. O‘quvchilar video, blog, ijtimoiy tarmoq postlari kabi ijodiy media mahsulotlarni yaratishda yangi texnologiyalardan foydalanishni o‘rganadilar. Bu esa ularning ijodiy salohiyatini oshiradi.

### **4. Axborot madaniyati**

Mediata'lim nafaqat texnologiyalarni to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatadi, balki axborot madaniyatini ham shakllantiradi. O‘quvchilar internet va media muhitidagi axloq qoidalari, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligi kabi masalalar bilan tanishib, zamonaviy jamiyatda mas'uliyatli bo‘lishni o‘rganadilar.

Mediata'lim ta’lim tizimida quyidagi muhim jihatlar bilan ajralib turadi:

#### **a. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining integratsiyasi**

Mediata'lim axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog‘liq. Shunday ekan, zamonaviy ta’lim platformalari, masofaviy o‘quv tizimlari, simulyatsiyalar va virtual ta’lim kabi yangi texnologiyalar mediata'limning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu ta’lim jarayonini yanada interaktiv va samarali qilish imkonini beradi.

### **b. Ijtimoiy tarmoqlar va internet madaniyati**

Mediata'lim o'quvchilarni internet va ijtimoiy tarmoqlarda xavfsiz, madaniyatli va mas'uliyatli bo'lishga o'rgatadi. Ular ijtimoiy tarmoqlarda axborot almashish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va virtual dunyoda o'z brendini shakllantirish qobiliyatlarini egallaydilar.

### **c. Tanqidiy yondashuv va ko'p qirrali fikrlash**

Mediata'lim o'quvchilarning muhim voqeа-hodisalar va axborot oqimlariga tanqidiy yondashish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu ularga OAV orqali tarqatilayotgan axborotni tahlil qilish va xolis baholash imkonini beradi.

## **4. Mediata'limning kelajagi**

Kelajakda mediata'limning ahamiyati yanada ortib boradi. Digital texnologiyalar va sun'iy intellektning rivojlanishi natijasida media vositalaridan foydalanish imkoniyatlari kengayib, yangi formatdagi mediata'lim platformalari va vositalari yuzaga keladi. Mediata'lim orqali kelajak avlod media muhiti va axborot oqimlarida muvaffaqiyatli harakat qilishga tayyorlanadi.

**Xulosa:** Mediata'lim bugungi ta'lim tizimida talabalarni media kontentni to'g'ri tahlil qilish, axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga o'rgatadigan muhim yo'nalishdir. U tanqidiy fikrlash, ijodiy salohiyat va axborot madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarga media muhitida muvaffaqiyatli harakat qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, ta'lim tizimi uchun zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash orqali yanada samarali o'quv jarayonini ta'minlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

**1.** Khasanovich G. L. POSSIBILITIES OF THE INFOCOMMUNICATION BASE IN TEACHING ON DIFFERENTIATED EDUCATIONAL PROGRAMS IN PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – T. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.

**2.** Гаффаров Л. X. и др. Малака Ошириш Таълим Тизимида Ислоҳотлар: Инновацион Фоялар //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 43-49.

**3.** Gaffarov L. X. et al. VR TEXNOLOGIYALAR VA UNI TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI //SCHOLAR. – 2024. – T. 2. – №. 3. – C. 101-106.

**4.** Gaffarov L. X. et al. TALABALAR DAVOMATINI NAZORAT QILUVCHI MOBIL ILOVA ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 251-254.

**5.** Gaffarov L. X. et al. VR TEXNOLOGIYALAR VA UNI TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI //SCHOLAR. – 2024. – T. 2. – №. 3. – C. 101-106.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827119>

## YURIDIK KADRLARNI TAYYORLASHDA RIM HUQUQI FANINING AHAMIYATI

**Turanov Diyorbek Abdullayevich**

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Yurisprudensiya: biznes huquqi yo‘nalishi

e-mail: [turanovd644@gmail.com](mailto:turanovd644@gmail.com)

**Anotatsiya:** Rim huquqi fani bugungi kun yuridik kadrlarini tayyorlash uchun asosiy qo‘llanma bo‘lib hisoblanadi. Buning asosida I-VI asrlarda Rim quzdorlik jamiyatining asosiy huquqi va jismoniy shaxslar ishtirokida mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy manbaa bo‘lganini misol keltirishimiz mumkin. Rim huquqi Rim davlatining Rim imperiyasi darajasiga chiqishiga ham asosiy ta’sirlardan biri deb qaraladi. Rim huquqining bugungi kunda yuridik kadrlar tayyorlashdagi o‘rni esa ko‘plab huquqiy atamalar qadimgi Rim huquqlarida keltirib o‘tilgan va fan orqali shu atamalarning mohiyatini anglashda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** Rim huquqi, Yuridik kadr, Mulk huquqi, Xususiy huquq, Huquq kodifikatsiyalari, Kvirit.

### Kirish

**Rim huquqining tarixda tutgan o‘rni:** Qadimgi Rim huquqi insoniyat huquqi tarixida muxim ro‘l o‘ynaydi. U antik jamiyatda va umuman butun qadimgi dunyo tarixida huquq rivojlanishining eng qadimgi va o‘sha davrga nisbatan eng asosiy mazmunni aks ettiradi. Rimliklar birinchi bo‘lib cheklanmagan xususiy mulkchilik huquqini, ya’ni Rim huquqshunoslari xususiy mulkka asoslangan eng mukammal huquq tizimini shakllantirganlar va rivojlantirganlar. Bu huquq tovar ishlab

chiqaruvchilar jamiyatining birinchi olamshumul huquqi hisoblanadi, oddiy tovar egalari o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarning hammasi (xaridor va sotuvchi, kreditor va qarzdor, shartnoma, majburiyat va hokazoning) tafsilotlari bilan juda aniq ishlab chiqilgan. Shu ma’noda Rim huquqini fuqarolik huquqini o‘rganishda asos qilib olish ham mumkin. Rim huquqi insoniyat tarixida huquq sohalarini va umuman huquq tizimini shakllanishi va rivojlanishining asosini o‘zida aks ettirib huquqiy madaniyatning muhim jihatlaridan birini, ya’ni Rim yurisprudensiyasini tashkil etgan. Qachonlardir Rim huquqi «yozma aql» deb atalgan. Biz uchun ilgaridan o‘rnatilgan yozma aql mavjud emas yoki Rim huquqi va boshqa huquqlar ham yozma aql bo‘la olmaydi. 1804-yildagi Napoleon Fuqarolik Kodeksidan boshlab, 1900-yilgi Germaniya Fuqarolik tuzuklari majmuasi (ulojeniyelari)va boshqa Yevropa, Osiyo va Afrika mamlakadarining fuqarolik va savdo kodekslari Rim fuqarolik xususiy huquqining normalariga asoslanib qabul qilingan, chunki ularning eng asosiy maqsadi, xususiy mulkni “muqaddaslashtirish”dir. Shu bilan birga iqtisodda hukmron bo‘lgan sinf vakillarining erki, irodasi va manfaatlarini qonun darajasida ko‘tarib, uni mustahkamlashdan iborat bo‘lgan.

Rim huquqini «yuridik iboralar laboratoriyasi» deb ham ataganlar. Shu sababli undan huquqiy iboralarni, shuningdek yuridik texnikani o‘rganish huquqshunoslar tomonidan qonunlarni qabul qilishda, ularni takomillashtirishda, aniq va tushunarli bo‘lgan so‘zlarni ishlatishda katta yordam beradi. Bundan tashqari, xalqaro shartnomalarni ishlab chiqish va sharhlash, xalqaro arbitraj jarayonlari hamda millatlararo huquqiy masalalar kabi bir qator mavzularni qamrab olganligi – Rim huquqi fani o‘qitilgan yuridik kadrlar turli sohalarda o‘z ishining mukammal va yetuk mutaxassisilar bo‘la oladi.

**Kvirit (fuqarolik)** huquqi ilk sinfiy jamiyatning oddiy, natural munosabatlarini o‘zida ifoda etgan. U uzoq vaqt kohinlar, pontifiklar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan. Rim huquqining shakllanishida va uning taraqqiyotida kohinlar muhim o‘rinni egallaganlar. Ayniqsa ular ichida Pontifiklar ajralib turgan. Pontifiklar ma’lum bir davr mobaynida sud ishlari bo‘yicha yuridik faoliyat bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga

solib turganlar. Ijtimoiy munosabatlarning yanada takomillashishi natijasida Rim huquqida asta-sekin dunyoviy asoslar kuchayib borsada, u o‘zida ko‘pgina dabdabani va marosimiylikni hamda dastlabki odat normalarini saqlab qolgan. Shu bilan birga u talabchanligi, hatto shafqatsizligi, aniq ta’kidlanganligi bilan ajralib turgan. Arxaik Rim fuqarolik huquqining o‘ziga xos xususiyatini mulkiy munosabatlarning, birinchi navbatda xususiy mulk huquqining aniq tartibga solganligi bilan izohlanishi mumkin. Xususiy mulk huquqi mulk egasining o‘z ashyosi ustidan to‘la hukmronligini anglatgan. Lekin fuqarolik jamoasi yerlarini va boshqa xo‘jalik huquqi uchun muqim va oilaviy xarakterga ega bo‘lgan mulklarni tasarruf etishni oliv nazorat qilish huquqini uzoq vaqtgacha o‘zida saqlab qolgan. Kvirit (fuqarolik) huquqida tantanali sud odatlariga yoki sud protsessini o‘tkazish tartiblariga qat’iy amal qilish katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Shu bois bu davrda shakl mazmundan, sud jarayoni esa moddiy huquqdan ustun turgan. Rasmiyatchilik ilk sinfiy jamiyatda hayotning patriarchal tizimini saqlanib qolishi va qaytadan tiklanishi uchun yordam beradigan mustahkam huquqiy tartibotni ushlab turish sharoitlaridan biri 22 bo‘lgan edi. Lekin u obyektiv jihatdan faqat xususiy mulkchilik munosabatlarining rivojlanishini to‘xtatibgina qolmay, balki ijtimoiy va siyosiy hayotning demokratik shakllarini ham to‘xtatib qo‘ygan.

**Xususiy huquq**-bu huquqning bir bo‘lagi hisoblanadi. Xususiy huquq bu shaxslar o‘rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga solishga va shaxslarning huquqlarini himoya qilishdagi asosiy normalar jamlanmasi hisoblanadi.

**Ommaviy huquq**-bu huquq tizimining bir qismi bo‘lib, ya’ni umumiy (jamiyat) va milliy manfaatlarni ta’minalash bilan bog‘liq mnosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar yig‘indisi hisoblanadi. Rim huquqi yuridik madaniyatning rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

- 1) **Rim huquqining yuridik texnikasi**, shunga ko‘ra, qonun ustuvorligining to‘g‘riligi va ixchamligiga, umuman, qonunning yaxlitligi va amaliyligiga ta’sir qiladi;
- 2) **Rim huquqining eksklyuzivligi**, jamiyat va uning madaniyatining jadal rivojlanishi natijasi hamda tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi natijasidir.

Rim huquqining muvaffaqiyati huquqiy vositalarning butun jamlanmasini yaratgan yuristlarning mahorati bilan bog‘liq.

Rim huquqining shakllanish jarayonida vujudga kelgan masalalar va uning tarkibi ko‘plab huquqshunos olimlarning tadqiqot mavzusida o‘z aksini topgan bo‘lib, bunda Rim huquqida shakllangan qoidalar, konsepsiylar, tamoyillar Qadimgi Rim davlati tugatilgandan keyin ham saqlanib qoldi va hozirgi kunga qadar huquqshunoslikni o‘rganishda, turli mamlakatlarning huquq tizimini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Bugungi kunga kelib, Rim huquqi ilmi xanuz rivojlanishda davom etayotgan va tartibga solinib, batafsil ishlab chiqilgan ta’limotga aylandi.

Yuridik ta’lim ham aynan Rim huquqidan boshlangan desak yanglishmagan bo‘lamiz. Yuridik ta’lim tizimida Rim huquqi fani alohida o‘rin tutadi. Rim huquqi yuridik tafakkurni rivojlantirishda yordam beradi. Huquq ta’limida talabalar muammolarni hal etishda mantiqiy fikrlash va analitik qobiliyatlarini rim huquqi va uning tarixini o‘rganish orqali oshiradilar. Bu fandagi ma’lumotlar orqali boshqa millatlarning huquqlari bilan o‘rganilayotgan huquq va normalarni taqqoslash imkonini beradi, bu esa talabalarni global yondashuvga o‘rgatadi.

Rim huquqi bundan XXV asr muqaddam Rim quldorchilik davlatining mahsuli bo‘lgan. Hozirda mavjud bo‘lgan barcha huquq sohalarining negizini belgilab beradigan jahon tarixi va huquqiy madaniyatida alohida iz qoldirgan. Fuqarolik va savdo huquqlarining vujudga kelishida asos sifatida xizmat qilgan huquqiy xazinalardan hisoblanadi.

Bu soha “Rim huquqi”, “Rim fuqarolik huquqi”, “Rim xususiy huquqi” deb atalishidan qat’iy nazar, uning mazmun va mohiyati o‘zgarib qolmaydi, chunki, qadimgi Rim quldorchilik davlatining birdan-bir huquqi fuqarolik huquqi bo‘lib, hatto dastlabki paytlarda jinoiy jazo bilan bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatlar ham bevosita huquqiy munosabatlar bilan tartibga solingan.

O‘zbekiston yuristlarining barcha jahon davlatlari bilan yuridik munosabatlarda qatnashishi, ularning huquqlarini bilishi lozimligini taqozo etadi. Buning uchun, burjua

huquqi asl manbasini o‘rganishda, Rim xususiy huquqini o‘rganishlik talab etiladi. Bundan tashqari, Rim huquqi har bir qonunni yoki normativ hujjatlarni qabul qilishda har tomonlama fikrlashib, yuridik tafakkurning kuchli ta’siri ostida vujudga kelgan normalardan iborat bo‘ladi. Uni o‘rganish yuristlar tomonidan yuridik fikrlash qobiliyatining kuchayishiga olib kelib, qisqa va aynan xalqqa tushunarli qonunlarni, qarorlarni va boshqa hujjatlarni qabul qilishlik uchun nazariy imkoniyat yaratishi mumkin.

### Xulosa

«O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshhinadi. ... Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi... inson uchun tarixdan judo bo‘lish - hayotdan judo bo‘lish demakdir» deb ta’kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q» deb nomlangan asarida...

Tarix fan sifatida jamiyat taraqqiyotining ob’yektiv qonunlari haqidagi bilimlar tizimini o‘zida mujassamlashtirgan, ularni tushunish, jamiyatning keljakdagi rivojlanishini ko‘ra bilishiga imkoniyat yaratadi. Zamonaviy huquqshunoslar Rim xususiy huquqini o‘rganishi ular uchun Rim huquqi cheksiz terminologik manbara, hozirgi kungacha o‘z nufuzini saqlab kelayotgan tushuncha va ta’riflar to‘plamidir. Zamonaviy huquqning ommaviy va xususiyga bo‘linishi Rim huquqidan kelib chiqadi va ko‘plab huquq tizimlari tomonidan qabul qilinadi, garchi, o‘zgartirilgan shaklda bo‘lsa ham. XX asr muqaddam vujudga kelgan, Rim quidorlik davlatining fuqarolik xususiy huquqi tarixini o‘rganish O‘zbekiston yuristlari uchun dolzarb masalalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi insonparvar, mustaqil, suveren, huquqiy davlat sifatida fuqarolik jamiyatini qurar ekan, u o‘zining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy munosabatlari orqali jahondagi barrcha davlatlar bilan shartnomalar tuzish, ularni bajarishlik munosabatlarini olib bormoqda va barcha davlatlar tomonidan suveren davlat sifatida tan olingan.

## ADABIYOTLAR

- 1.** Ernazarov O. Rim huquqi. Darslk. “Namangan” nashriyoti. 2005-yil
- 2.** Isxakov S. Topildiyev V. Raxmanov A. Darslik. “Toshkent” nashriyoti. 2012-yil
- 3.** Shomuhammedova.Z.SH. Rim Xususiy Huquqi. Darslik. “Toshkent” nashriyoti. 2005-yil

- 4.** Youtube sahifasi

[https://www.youtube.com/watch?v=buLvnnmcILc&list=PLWwcngsYgoUUv5NgIyRXaZDVLZ\\_0jzYPC&index=1&pp=iAQB](https://www.youtube.com/watch?v=buLvnnmcILc&list=PLWwcngsYgoUUv5NgIyRXaZDVLZ_0jzYPC&index=1&pp=iAQB)

- 5.** Internet sahifasi

<https://spb-spr.ru/uz/iski/rimskoe-publichnoe-pravo-ponyatie-rimskogo-prava-sootnoshenie-chastnogo-i.html>

- 6.** Wikipediya [https://uz.wikipedia.org/wiki/Rim\\_huquqi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Rim_huquqi)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827135>

## **INTERNATIONAL ASSESSMENT PIRLS**

**Dadabayeva Hayotxon**

Uzbek State World Language University

Student of English in Preschool and Elementary Education

E-mail: [dadabayevahayotxon@gmail.com](mailto:dadabayevahayotxon@gmail.com)

**Abstract:** *The progress in International Reading Literacy Study (PIRLS) is a large-scale, international assessment designed to measure the reading comprehension abilities of fourth-grade students worldwide. Administered every five years, PIRLS evaluates how well students can understand and interpret written texts, with the aim of providing a comparative analysis of educational systems across countries. PIRLS focuses on two key areas: reading for literary experience and reading to acquire and use information. It offers insights into instructional practices, home environments, and socio-economic factors that impact reading development. Countries participating in PIRLS use the data to inform educational policies and improve reading literacy programs. Since its inception in 2001, PIRLS has expanded to include prePIRLS, an easier version of the test for emerging readers, and ePIRLS, a digital reading component. The results offer critical insights into the strengths and weaknesses of reading education worldwide, making PIRLS a valuable tool for educators, policymakers, and researchers interested in improving reading outcomes for students globally.*

**Key words:** *PIRLS, reading literacy, international assessment reading comprehension, fourth-grade students, educational policy, prePIRLS, Epirls.*

**Overview of PIRLS.** PIRLS, conducted by the International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), assesses reading literacy in children who are typically in the fourth grade. The main goal is to understand how well children can read to learn and how various factors, such as home environment, instructional practices, and national policies, affect student outcomes. PIRLS is not just a test; it also includes questionnaires for students, teachers, and parents, offering comprehensive data on how contextual factors influence learning.

**Structure of PIRLS.** PIRLS assesses reading literacy through a combination of two domains:

**Reading for literacy experience:** This domain evaluates students' abilities to understand and interpret fictional texts.

**Reading to acquire and use information:** this domain focuses on nonfiction texts and measures the ability to comprehend and use information from written sources. Each student is required to read a variety of texts and answer questions related to comprehension, interpretation, and critical evaluation of the materials.

**Components of PIRLS. PrePIRLS:** A simplified version aimed at countries where literacy levels are lower, designed for emerging readers. **Epirls:** Launched in 2016, Epirls assesses students' ability to read and comprehend online information, which reflects the growing importance of digital literacy.

**Educational Impacts of PIRLS.** PIRLS results are widely used by educational researchers, policymakers, and school administrators to inform national and local educational strategies. The data can identify strengths and weaknesses in reading literacy, leading to the development of targeted programs to improve student learning outcomes. Countries that participate in PIRLS use the findings to benchmark their students' performance against global standards.

**Factors influencing performance.** PIRLS collects data on multiple factors that affect student reading performance, including:

- **Socioeconomic Status (SES):** Higher SES is often correlated with better reading outcomes.

- **Home Literacy Environment:** The availability of books and reading resources at home plays a significant role in literacy development.
- **Instructional Time and Practices:** The amount of time teachers spend on reading instruction and the strategies they employ significantly impact students' reading abilities.

**History of PIRLS.** PIRLS was first conducted in 2001 by the International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), marking an essential step toward understanding global reading literacy. It was created to fill a gap in the comparative international assessment of reading skills, focusing on early reading development at the fourth-grade level. Before PIRLS, there was limited data on how reading literacy was taught and developed in the early years of education. PIRLS was developed to be administered every five years, allowing for the measurement of trends in reading achievement over time. This periodicity helps countries monitor progress and assess the impact of educational reforms.

**Methodology of PIRLS.** PIRLS is unique in its comprehensive approach to measuring reading literacy. Its methodology includes several key elements that make it reliable and robust assessment: **Test Design:** The **PIRLS test design** is based on reading comprehension tasks derived from both fiction and non-fiction texts. These texts are carefully selected to represent the types of reading materials that students encounter in their everyday academic environments. The test is divided into two main sections: **Literary reading:** this section includes fictional stories, often narrative in nature, which are meant to engage students in understanding and interpreting characters, plotlines, themes, and motivations. **Informational reading:** This section involves non-fiction texts, such as scientific articles, biographies,, or instructional pieces, assessing how well students can extract information, understand main ideas, and use the information to make informed decisions.

**Assessment Process.** Each country participating in PIRLS administers the test to a representative sample of students, typically those in their fourth year of formal schooling. Along with reading tests, PIRLS collects extensive background data through

questionnaires distributed to students, teachers, school administrators, and parents. These questionnaires provide context to the reading scores by gathering data on: **Home literacy environments** (e.g., parents' educational backgrounds, number of books in the home, frequency of reading activities at home). **Instructional practices** (e.g., reading strategies taught by teachers, time spent on reading instruction). **School resources** (e.g., access to libraries, availability of instructional materials). **Socioeconomic status** (e.g., family, income, employment of parents). The background data is crucial in identifying factors that contribute to reading performance and in comparing different educational systems.

**PIRLS and the Digital Age.** With the increasing role of digital media in education, Epirls was introduced in 2016 to assess online reading comprehension. This innovation reflects the changing nature of literacy in the 21<sup>st</sup> century, where students must navigate and interpret information from digital sources.

EPIRLS tests students' ability to read and understand texts in a simulated online environment. Students engage with interactive tasks, such as reading online articles, interpreting hyperlinks, and evaluating web-based information. The introduction of epirls is a response to the growing demand for digital literacy skills in both education and workplase.

**Future directions for PIRLS.** As education systems worldwide continue to evolve, PIRLS is likely to adapt and expand in several ways: **International of digital literacy:** with the rise of e-learning and online information access, future cycles of PIRLS will likely place greater emphasis on assessing students' digital literacy and online research skills. **Focus on Equity:** Addressing global disparities in reading literacy will remain a priority for PIRLS. Future reports may place more focus on examining how inequalities in access to education, technology, and resources affect reading outcomes. **Expanding Participation:** More countries, especially in Africa, Asia, and Latin America, are expected to participate in future PIRLS cycles, offering a more comprehensive view of global reading literacy.

**Conclusion.** PIRLS is an invaluable resource for understanding global reading literacy trends. It provides critical data for researchers, educators, and policymakers to analyze how various factors, such as instructional practices, home environments, and socio-economic conditions, impact reading performance. As educational demands evolve, particularly with the rise of digital media, PIRLS will continue to adapt, ensuring that it remains relevant in the assessment of modern literacy skills. Its role in shaping educational reforms worldwide underscores the importance of large-scale assessments in improving learning outcomes for all students.

## REFERENCES

1. Mullis, I. V.S., & Martin, M.O. (2021). PIRLS 2021 Assessment Framework. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).
2. Mullis, I.V.S., Martin, M, O., Foy, P., & Hooper, M (2017). PIRLS 2016 International Results in Reading. IEA.
3. IEA. (2021). PIRLS 2021: Reading Literacy Framework. IEA.
4. Foy, P., & Drucker, K. T. (2013). The International Database of the PIRLS 2011 Results. IEA.
5. Martin, M.O., & Mullis, I.V.S. (2013). Trends in Reading Literacy Achievement: PIRLS 2001-2011. IEA.

DOI: <https://doi.org/0.5281/zenodo.13827163>

## ҲАБИБ САҶДУЛЛА ШЕҶРИЯТИДА ПОЭТИК СИНТАКСИС

Эрманбетова Шоҳсанам Бозорбоевна

University of Business and Science

Тил ва адабиёт таълими кафедраси ўқитувчиси,

Gmail: [shohsanamermanbetova49@gmail.com](mailto:shohsanamermanbetova49@gmail.com)

**Аннотация:** Ушбу мақолада шоир Ҳабиб Саҷдулла шеҷрияти синтактик таҳлил қилиниб, шеър мисралари, байтлари ва бандларидаги жумла қурилиши ва уларда гап бўлакларининг тартиби ҳақида фикр юритилган.

**Калим сўзлар:** интонация, интонацион бўлак, пауза, урғу, нутқ, поэтик фигураналар, бадиий тақрор, тақрор сўзлар.

## ПОЭТИЧЕСКИЙ СИНТАКСИС В ПОЭЗИИ ХАБИБА САДУЛЛЫ

Эрманбетова Шоҳсанам Бозорбоевна

University of Business and Science

Преподаватель кафедры языкового  
и литературного образования

Gmail: [shohsanamermanbetova49@gmail.com](mailto:shohsanamermanbetova49@gmail.com)

**Аннотация:** В данной статье синтаксически анализируется поэзия поэта Ҳабиба Саадуллы, обсуждаются построение предложений в стихах, строфы и предложения стихотворения и порядок фрагментов предложения.

**Ключевые слова:** интонация, интонационный фрагмент, пауза, ударение, речь, поэтические фигуры, художественный повтор, повторяющиеся слова.

## POETIC SYNTAX IN THE POETRY OF HABIB SADULLA

**Ermanbetova Shohsanam Bozorboevna**

University of Business and Science  
Teacher of the Department of Language  
and Literature Education

Gmail: [shohsanamermanbetova49@gmail.com](mailto:shohsanamermanbetova49@gmail.com)

**Abstract:** In this article, the poetry of the poet Habib Sa'dulla is analyzed syntactically, the construction of sentences in the verses, stanzas and clauses of the poem and the order of sentence fragments are discussed.

**Key words:** intonation, intonation fragment, pause, emphasis, speech, poetic figures, artistic repetition, repeated words.

Маълумки, шеърий синтаксисда шеър мисралари, байтлари ва бандларидаги жумла қурилиши ва уларда гап бўлакларининг тартиби ҳақида фикр юритиш билан шуғулланади. Шеърий нутқда шеърий жумла қуриш, сўз танлаш ва уларни гап қурилишида мохирона ишлатиш масаласи муҳим аҳамият касб этади.<sup>1</sup> Ижодкор шеърларининг поэтик синтаксиси бир-биридан ўзига хослиги билан ажралиб туради.

Шеъриятда бадиий образ ва унинг ифодаси муаммоси жаҳон адабиётшунослигига атрофлича ўрганилган. Бадиий образ ва унинг ифодаланиши масалалари шеъриятда, асосан, рамзий-мажозий тимсоллар воситасида амалга оширилган. Бу жиҳатдан Арасту, И.В.Гёте, Д.Дидро, Г.В.Гегель, Х.О.Гассет, В.Шкловский, Б.Эйхенбаум, В.Жирмунский, Л.Тимофеев, М.Б.Храпченко, Ю.Лотман, Г.Н.Поспелов, В.Е.Хализов каби

<sup>1</sup> Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т.: - Ўзбекистон, 2002. Б.423.

олимларнинг фундаментал тадқиқотлари аҳамиятли ҳисобланади. Ўзбек адабиётшунослигида бадиий образ ва унинг ифодаланишини ўрганишга бағишиланган Фитрат, И.Султон, О.Шарафиддинов, С.Мамажонов, У.Норматов, А.Расулов, И.Фафуров, Н.Рахимжонов, Ҳ.Болтабоев, Й.Солижонов, А.Шаропов, У.Ҳамдамов, А.Сабирдинов, М.Йўлдошева, Н.Мирзаева, Ф.Раджабова ва бошқа олимларнинг ишларини кўрсатиб ўтиш мумкин.

Хусусан, Ҳабиб Саъдулла ижоди Э.Муҳамедов, О.Носиров, Э.Худойбердиевлар Э.Нурматов, А.Тошхўжаев, У.Носиров, Ҳ.Солиххўжаеваларнинг монография, рисола ва мақолаларида тадқиқ этилган.

Ҳар бир асарнинг интонацияси бор. Нутқнинг синтаксиси, сўздаги гапнинг ўрни, улардан айримларини пауза билан, секин ёки тез талаффуз қилиниши турли хилдаги интонацияни пайдо қиласди. “Шеърий сўз матндаги ўрнига қараб хитоб, киноя, шама, гина, ўпкалаш, таажжуб, шодланиш, мурожаат, ғурур, ундов, ғазаб сингари маъноларни англатади.”<sup>1</sup> Интонация лирик қаҳрамон характеристини очиб берувчи энг муҳим восита ҳисобланади. Шеър интонацияси интонацион даврларга ва уларнинг таркибига киравчи интонацион бўлакларга бўлинади. Интонацион даврлар икки нуқта ўртасидаги мустақил ва тугал жумлани ташкид этса, интонацион бўлаклар эса интонацион давр ичидаги интонация жиҳатидан мустақил бўлмаган ва икки пауза ўртасида келган нутқ бирлиги билан изохланиб келади. Шоир Ҳабиб Саъдулланинг ушбу шеърида уч интонацион давр ва 7 интонацион бўлак мавжуд:

Эҳ-ҳе, булбул бўлиб кетдинг-ку, ошнам,

Дилгинангда шунча кўпмиди зоринг?

Мунча нола қилдинг,

Ёндинг мунча ҳам,

Ўтмай қолмаган-ку сира бозоринг.<sup>2</sup>

---

1 Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т.: - Ўзбекистон, 2002. Б.423.

2 Саъдуллаев Ҳ. Танланган асарлар. I том -Т: “Шарқ”,- 2002 й, 275.

Шоирнинг “Пушкин” номли шеърида эса икки интонацион давр ва тўрт интонацион бўлак мавжуд:

Ўйнашмагил шоир ғуури билан,

Ахир эл яшайди унинг қонида.

Халқ қадрин ўзининг қадри деб билар,

Халқ дарди ҳаттоки устихонида.<sup>1</sup>

Шоир шеърларида интонацион ранг- барангликни кузатиш мумкин.

Интонацион ранг- баранглик асар тилига таъсирчанлик баҳш этади. Ҳабиб Саъдулланинг қўйидаги шеърларида турли маъно ифодаловчи сўз маъноларини кўришимиз мумкин:

Ҳақиқат, ол ўзинг дунёни,

Даф қилгил жаҳолат, риёни,

Чекинсин сен сочган зиёдан

Зулматлар, кулфатлар, тухматлар.<sup>2</sup>

Интонацияни пауза, ургу ва нутқ вужудга келтиради. Пауза шеърий нутқда катта ўрин тутади. У мисралар орасидаги туроқларнинг охирига тушади, айрим сўз ёки сўз бирикмаларини бўрттиради, уларнинг маъно ва аҳамиятини таъкидлайди, шеърий нутқ;а ҳис-хаяжон бағишлайди. Айник;са, шеърдаги байт ёки бандлар шеъриятнинг тугалланган бир бўлаги сифатида доимо пауза билан бир-биридан ажralади. Шеър ритмини тартибли жойлашган нутқ, бўлакларининг қонуний такрорланишиз яратиб бўлмайди, поэтик нуткдаги бу бўлакларни эса паузасиз тасаввур қилш қийин.

Масалан, Ҳабиб Саъдулланинг ушбу шеъридан бир бандни олиб кўрайлик:

Икки йилки сенсиз яшар Намангон, - 6+5

Бир сим узилгандай гўё торидан. - 6+5

Боғидан камайди битта ғазалхон, - 6+5

<sup>1</sup> Саъдуллаев X. Танланган асарлар. I том -Т: “Шарқ”,- 2002 й, 276.

<sup>2</sup> Саъдуллаев X. Танланган асарлар. I том -Т: “Шарқ”,- 2002 й, 276.

Бир япроқ узилган алп чиноридан.<sup>1</sup>

- 6+5

Ушбу түртлик 6+5 вазнида. Бунда фактт иккинчи туроқ охиридагини эмас, балки биринчи турокдан кейин хам пауза пайдо булади. Бунда ритмик пауза ҳосил бўляпти. Ритмик пауза шеър ритмининг бир босқичини билдириб келади, аммо у мисралар охиридаги паузалардан анча қисқадир. Мисра охиридаги пауза чўзиқроқдир. Шу сабабли кичик турокдан сўнг келувчи паузани кичик ритмик пауза, мисра охирида келувчи паузани катта ритмик пауза деб аталади. Пауза шеър охирини ташкил этишда муҳим роль уйнайди.

Шеърий нутқ, синтаксисининг энг муҳим соҳаларидан бири поэтик фигуralар ҳисобланади. Поэтик фигуralар, худди кўчимлардек, бадий нутқни белгиловчи воситалар эмас, у аслида, инсон руҳиятининг ўзига хослиги ва жонли тил табиатидан табиий равишда келиб чиқадиган ходисалардир. Одам ҳаяжонланган, қувончларга тўлган, хафа бўлган ёки нафратланган пайтларида унинг нутқи одатдагидан ўзгаради: нутқ осойишта эпик руҳини йукотади, ran қурилиши бошқача гўе олади, жумлалар қисқа қисқа бўлади, баъзи сўзлар тушиб қолади, баъзи сўзлар эса такрорланади. Ҳатто, баъзан алоҳида сўзларгина эмас, бутун-бутун жумлалар ҳам такрорланиб келади. Жонли тилдаги бундай ўзига хос хусусиятлар бадий

нутқда ўз ифодасини топади. Фигуralар алоҳида сўзларнинг маъносини, аҳамиятини ўгартирмайди, аксинча у инсон хиссиётига асосланиб бадий нутқ қурилишига таъсир ўтказади.

Поэтик фигуralар бир неча турларга бўлинади. Уларни қуйидагича тасниф қилиш мумкин:

1. Кучайтирувчи фигуralар
2. Пасайтирув фигуralар
3. Охангдош фигуralар
4. Зидлов фигуralар

<sup>1</sup> Саъдуллаев X. Танланган асарлар. I том -Т: “Шарқ”,- 2002 й.,Б.362.

Бу фигуralар лирик қаҳрамон ҳиссиётини бўрттириш, кучайтиришга хизмат қилади. Кучайтирувчи фигуralар гурӯхига градация, риторик сўроқ, мурожаат ва бадиий такрорлар киради. Градация лотинча “зинапоя” маъносини англатувчи сўздир. Градацияда сўз маъносини мисрадан мисрага ўтишда кучайиб, кўтарилиб боришини кузатиш мумкин. Градациянинг климакс ва антиклимакс қўринишлари мавжуд. Климакс турида шеър маъносининг юқорига қараб ўсиб, кўтарилиб бориши кузатилади . Шоирнинг ушбу шеърида градациянинг иккала турини ҳам қўриш мумкин:

Сени юрагимнинг қаъридан мутлоқ

Юлиб ташламоқчи бўламан.

Сени юрагимнинг қаъридан мутлоқ

Суғуриб ташламоқчи буламан,

Бироқ,

Юлиб ташлолмайман, малагим! <sup>1</sup>

Лирик қаҳрамон қалбидаги ҳис-туйғуларини ошкора, тантанавор исёнкорона руҳда айтади. Қалбида яшириниб ётган дард, яъни севгилисини юрагининг қаъридан бутунлай суғуриб олиб ташламоқчи бўлади. Лекин, бу иш унинг қўлидан келмайди. Бу ўринда шеърда қаҳрамон ҳис-туйғуларини исёнкорона, мардона ифодаси кузатилади.

Хулоса. Ҳабиб Саъдулла шеърларида бадиий тасвир воситалари, поэтик синтаксис ифодасининг ўзига хос қирралари намоён бўлади. Бадиий такрор, апострофа, ўхшатиш, риторик сўроқ каби воситалар муайян бадиий мақсадни амалга ошириш учун қўлланади. Тасвири бўрттириш, асосий фикрга диққатни қаратиш, фикрлар тадрижини кучайтириш ана шундай мақсад ва вазифалардан саналади.

---

<sup>1</sup> Саъдуллаев X. Танланган асарлар. I том -Т: “Шарқ”,- 2002 й.,Б.133.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Адабий тур ва жанрлар. II томлик. 1-том. ЎзР ФА. -Т: “Фан” нашриёти. 1991 й.
2. Адабий тур ва жанрлар. II томлик. 2-том. ЎзР ФА. -Т: “Фан” нашриёти. 1992 й.
3. Асаллиев А., Раҳмонов Ф. Бадиий санъат жозибаси. -Т: Faфур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1974 й
4. Саримсоқов Б. Н. Адабиётшунослик асослари ва мезонлари. -Т: А. Аҳмедова босмахонаси. 2004 й.
5. Саъдуллаев Ҳ. Танланган асарлар. I том. -Т: “Шарқ” нашриёти матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2002 й.
6. Саъдуллаев Ҳ. Танланган асарлар. II том. -Т: “Шарқ” нашриёти матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2002

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827200>

## KOMPYUTER LINGVISTIKASINING BUGUNGI KUNDA JAHONDAGI AHAMIYATI

**Sunatov Jo‘rabek Turg‘unbek o‘g‘li**  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi  
E-mail: [jurabek.sunatov666@mail.ru](mailto:jurabek.sunatov666@mail.ru)

**Xayriddinov Shavkat Botirovich**  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi  
E-mail: [xayriddinovshavkat2@gmail.com](mailto:xayriddinovshavkat2@gmail.com)

**Rasilova Aziza Isroil qizi**  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi  
E-mail: [azizarasilova0@gmail.com](mailto:azizarasilova0@gmail.com)

### *ANNOTATSIYA*

*Ushbu maqolada ingliz tilining O‘zbekistondagi o‘rni va ahamiyati haqida ma’lumot berilgan. Chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini o‘rganish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** chet tili, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta-maxsus ta’lim, hamkorlik, taraqqiyot, tadqiqot, individuallik.

### **KIRISH**

Kompyuter lingvistika — tabiiy tillarni kompyuter yordamida avtomatik qayta ishlashga ixtisoslashgan fan. Bu soha sun’iy intellekt, ma’lumotlarni qayta ishlash va tabiiy tilni tushunish texnologiyalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Hozirgi globallashgan davrda til to‘silalarini yengib o‘tish, ma’lumotlarni ommaviy qayta ishlash va sun’iy intellekt tizimlari orqali muloqot qilish dolzarb bo‘lib qoldi. Ushbu maqola kompyuter lingvistikasining jahon miqyosidagi ahamiyati va uni rivojlantirishning amaliy jihatlarini tahlil qiladi.

Kompyuter lingvistikasi fani globallashuv davri muammolarini hal qilishga yo‘naltirilgan, yoshlarning ham texnikani, ham xorijiy tillarni mukammal o‘rganishlarini ta’minlaydigan soha hisoblanadi. Kompyuter lingvistikasining asosiy maqsadi lingvistik masalalarni yechishning kompyuter dasturlarini ishlab chiqish hamda bu dasturlar uchun ma’lumotlar bazasini yaratishdan iborat. Kompyuter lingvistikasining o‘rganish obyekti, tahlil doirasi keng. Kompyuter lingvistikasi tilshunoslik nazariyasi va amaliyoti, kognitiv psixologiya, matematika, informatika va falsafa bilan uzviy bog‘liqdir. Kompyuter lingvistikasi qayd etilgan sohalarga oid masalalarni ham qamrab oladi. Kompyuter lingvistikasini o‘rganish tilning o‘ziga xos tizimini, ramzlar, belgilar, modellar ko‘rinishidagi qiymatini, ijtimoiy funksiyalarini anglatishga, yangi informatsion texnologiyalar bilan tanishtirishga, tilshunoslikning nazariy masalalari, kognitiv psixologiya, mantiq, falsafa, matematika bilan bog‘liq qonuniyatlarni o‘zlashtirishga xizmat qiladi [1].

## USULLAR.

Maqolada qo‘llanilgan usullar:

**Adabiyot tahlili:** xalqaro ilmiy maqolalar va tadqiqotlar asosida kompyuter lingvistikasining turli aspektlari ko‘rib chiqildi.

**Empirik ma’lumotlar:** Kompyuter lingvistikasining asosiy texnologiyalari va ularning hozirgi zamonaviy qo‘llanish misollari tahlil qilindi.

**Statistik tahlil:** Dunyo miqyosida kompyuter lingvistikasiga asoslangan texnologiyalarning kengayishi va qabul qilinish darajasi statistik ma’lumotlar asosida baholandi.

## NATIJALAR.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki:

**Avtomatik tarjima tizimlari:** Google Translate, DeepL kabi avtomatik tarjima tizimlari jahon miqyosida foydalanuvchilar tomonidan keng qo‘llaniladi. Ushbu tizimlar sun’iy intellekt va kompyuter lingvistikasiga asoslanib, tillar orasidagi to‘siqlarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi.

Tabiiy tilni qayta ishslash (NLP): So‘nggi yillarda NLP texnologiyalari masalan, Google Search, Siri va Alexa kabi ovozli yordamchi tizimlarda keng qo‘llanmoqda. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bu texnologiyalar orqali foydalanuvchilar bilan muloqot samaradorligi oshirilgan va texnologiyalarga kirish qulaylashgan.

Chatbotlar va sun’iy intellekt tizimlari: Kompaniyalar mijozlar bilan muloqot qilishni avtomatlashtirish uchun chatbotlardan foydalanmoqda. Kompyuter lingvistikasiga asoslangan bu tizimlar millionlab foydalanuvchilarga bir vaqtda xizmat ko‘rsatish imkonini beradi.

Tadqiqot yutuqlari: Kompyuter lingvistikasining rivojlanishi orqali til tuzilmalari va qoidalari chuqurroq o‘rganilmoqda. Ushbu tadqiqotlar tilning kognitiv aspektlarini va muloqot jarayonlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

### MUNOZARA

Kompyuter lingvistikasining xalqaro ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. **Avtomatik tarjima tizimlari** orqali turli tillardagi hujjatlar va matnlar osongina tushunilmoqda, bu esa global biznes, ilm-fan va ta’lim sohasida muloqotni sezilarli darajada osonlashtiradi. Shu bilan birga, **NLP texnologiyalari** inson va mashina o‘rtasidagi muloqotni yanada tabiiyroq qilmoqda. Siri, Alexa va Google Assistant kabi texnologiyalar hozirda milliardlab odamlar tomonidan kundalik hayotda qo‘llanilmoqda.

Chatbotlarning rivojlanishi xizmat ko‘rsatish sohasida katta o‘zgarishlar olib keldi. Ular yordamida kompaniyalar foydalanuvchilar bilan yanada yaqin va tezkor muloqotga kirishmoqda, bu esa xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi.

Tahlillar ko‘rsatadiki, kompyuter lingvistikasining texnologiyalari orqali nafaqat muloqot jarayonlari yaxshilanmoqda, balki sun’iy intellektning rivojlanishi ham tezlashmoqda. Tilni qayta ishslash va tushunish texnologiyalari insonlar bilan yanada ko‘proq moslashuvchan aloqa o‘rnatish imkonini beradi.

### XULOSA.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kompyuter lingvistikasining jahon miqyosidagi ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Ushbu texnologiyalar avtomatik tarjima tizimlaridan tortib, kognitiv tadqiqotlarga gacha bo‘lgan keng sohalarda qo‘llanilmoqda. Ular global muloqot va axborot almashish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtiradi va soddalashtiradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kompyuter lingvistikasining keljakdagi o‘rni yanada mustahkam bo‘ladi va bu soha turli sohalarda yanada keng qo‘llaniladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Xolmanova Zulkumor Turdiyevna. Kompyuter lingvistikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2019 y.
2. Murodullo o‘g‘li, J. U. APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN TECHNICAL SYSTEMS IN ENGINEERING FIELDS.
3. Jurayev, O. M. o‘g‘li ., Suvonov, B. I. o‘g‘li ., & Xayriddinov, S. B. (2024). INKLIZIV TA’LIMNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. GOLDEN BRAIN, 2(12), 105–108. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11501150>
4. Jurayev, O. M. o‘g‘li ., Suvonov, B. I. o‘g‘li ., & Xayriddinov, S. B. (2024). PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH. GOLDEN BRAIN, 2(12), 100–104. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11501095>
5. Хайдардинов, Ш. Б. (2024). ФИЛОСОФСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Экономика и социум*, (2-2 (117)), 669-672.
6. Raxmonov, X., & Sunatov, J. R. (2022). O ‘ZBEK TILI KOMPYUTER LINGVISTIKASI YO ‘NALISHIDA OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOTLAR. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).

7. Sunatov, J. R., Shamatova, G., & Maxmanazarov, O. (2024). TA'LIMDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH (MS POWERPOINT AMALIY DASTURIY TA'MINOT MISOLIDA). *Talqin va tadqiqotlar*, (28).
8. Suvonov, B., & Jamilova, S. (2024). SUN'IY INTELLEKTUAL TIZIMLARDA NOANIQ MANTIQNING AHAMIYATLILIGI VA UNING ANIQ MANTIQDAN FARQI. *Interpretation and researches*, (4 (26)).
9. Suvonov, B., & Islomov, A. (2024, May). VIRTUAL REALITY AND THE PRINCIPLES OF USING VIRTUAL REALITY IN THE EDUCATIONAL PROCESS. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 57-59).
10. Suvonov, B. I. (2023). INFORMATION AND COMMUNICATION SYSTEMS FOR TECHNOLOGICAL PROCESS MANAGEMENT: A COMPREHENSIVE REVIEW. *Экономика и социум*, (11 (114)-2), 440-443.
11. Abduvaliyev, A. A., & Sunatov, J. T. (2024). IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA TREND MEZONIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Экономика и социум*, (2 (117)-1), 69-73.
12. Sunatov, J. R., Rustamov, R., & Dustmurodova, M. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA FONETIK TAHLIL JARAYONI. *Modern Science and Research*, 3(5), 191-195.
13. Asror o‘g‘li, A. O., & Rahmon o‘g‘li, S. E. (2024). TA'LIMGA VEB PLATFORMALARNI JORIY ETISHNI TAHLIL QILISH. GOLDEN BRAIN, 2(8), 92-97.
14. Sa'dullayev, A., & Asrorov, O. (2024). THE ESSENCE OF NEW PEDAGOGICAL TERMS DURING THE REFORMS IMPLEMENTED IN THE FIELD OF EDUCATION. "Science Shine" International scientific journal, 14(1).
15. Sunatov, J. R. (2023, December). TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARING O 'RNI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions"* (Vol. 1, No. 01).

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827326>

## VIRTUAL O‘YINLARNING YOSHLAR ONGGIGA TA’SIRI

**Suvonov Behruz Iskandar o‘g‘li**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

E-mail: [behruzsuvonov0@gmail.com](mailto:behruzsuvonov0@gmail.com)

**Jurayev O’tkirbek Murodullo o‘g‘li**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

E-mail: [otkirbekjurayev4@gmail.com](mailto:otkirbekjurayev4@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada yurtimizda va jahonda mashhur bo‘lgan virtual o‘yinlar va ularning o‘sib kelayotgan yosh avlodning onggiga ta’siri haqida ma’lumot berilgan.*

**Kalit so‘zlar.** O‘yin, virtual o‘yin, internet-kafe, fiziologik rivojlanish, kompyuter o‘yini, aggressiv holat.

Virtual o‘yinlar bugungi jamiyatning keng tarqalgan qismiga aylandi, butun dunyo bo‘ylab taxminan 2,7 milliard geymer geymerlarga real dunyoda ko‘pincha imkon bo‘limgan immersiv va interaktiv tajribalarda qatnashish imkoniyatini taklif qilmoqda. Biroq, virtual o‘yinlarning tobora ommalashib borayotgani ularning odamlarga va umuman jamiyatga ta’siri haqida tashvish uyg‘otmoqda [1].

Virtual o‘yinlarga mukkasidan ketish so‘nggi yillarda dunyo xalqlarining jiddiy muammolaridan biriga aylanmoqda.


Hozir yoshlар ongiga ta’sir qilib, ular qalbiga o‘z buzg‘unchi g‘oyalarini singdirishni yoki ularni to‘g‘ri yo‘ldan ozdirishni maqsad qilgan kuchlar juda ko‘p. Bu

holat oddiy kompyuter o‘yinlaridan tortib, internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar, mobil aloqa dasturlarida ham ochiq ko‘zga tashlanadi.

Virtual olam insonni fikran qaram etish orqali o‘ziga bo‘ysundirmoqda. Hozir bolalar yoki o‘smirlarning internet-kafeni “ikkinchi uyi” ga aylantirib olayotgani sir emas. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, onlayn o‘yinlarni o‘ynovchilar ham, asosan, o‘smirlar. O‘smirlik shaxsning fiziologik va ijtimoiy rivojlanishidagi o‘ziga xos davr hisoblanadi. Agar shu davrda o‘g‘il yoki qiz aggressiv ruhdagi onlayn o‘yinlariga berilsa, bu noxush oqibatlarga olib kelishi turgan gap.

Kompyuter ekranidan turli tajovuzkorona ko‘rinishlar, zo‘ravonlik va fahsh ishlar ochiqdan-ochiq, ko‘rsatilishi bolalarning ruhiyatiga salbiy ta’sir etib, ma’naviy buzuqilikni keltirib chiqaradi.

Internet klublarda yoshlar o‘ynaydigan virtual o‘yinlarning 49 foizi sezilarli darajada zo‘ravonlik va yovuzlik ko‘rinishga ega. Ularning 41 foiz jangari (turli otishmalar va portlatishlarga asoslangan) o‘yinlarda esa o‘yin qahramoni o‘z maqsadiga yetishish uchun zo‘ravonlik va yovuzliklardan foydalanadi. Bunday o‘yinlarni yoshlarning ongiga tashlangan olovga qiyoslash mumkin, chunki bu o‘yinlar yoshlar ongini zaharlaydi va ularning ma’naviy tarbiyasiga salbiy ta’sir o‘tkazadi.



1-rasm. Virtual o‘yin

Farzand istiqboli, yorqin kelajagi uchun har bir kishi tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor bermog'i zarur. Bola tarbiyani turli kompyuter o'yinlari, internet va ijtimoiy tarmoqlardan emas, eng avvalo, ota-onalaridan, bobo-momolaridan, ezgulikka, poklikka va din-u diyonatga chaqiruvchi yaxshi kitoblardan olsin.

Virtual o'yinlarining salbiy oqibatlari haqida ommaviy axborot vositalarida bot-bot bong urishsa ham baribir internet-kafelarning doimo yoshlar bilan gavjumligi, u yerda o'smirlarning turli o'yinlarga mukkasidan ketayotgani va qimmatli vaqtini behuda o'tkazayotgani dilni xira qiladi. Ayniqsa, bolalarning diqqatini monitordan uzmagan holda bir-biri bilan so'kishib, bir-birini behayo so'zlar bilan haqoratlab gaplashishi internetdan ma'lumot olish uchun kelgan qizlar, ayollarning jiddiy e'tiroziga sabab bo'lmoqda.

Virtual o'yinlar bilan bog'liq yana bir katta tashvish - bu ularning real hayotdagi zo'ravonlik bilan bog'lanishi. Ba'zi tadqiqotlar virtual o'yin va tajovuzkor xatti-harakatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatsa-da, boshqalari bunday aloqani topmagan. Biroq, ko'plab VR o'yinlarida zo'ravonlik mazmunining tarqalishi o'yinchilarning zo'ravonlikka nisbatan sezgir bo'lishidan xavotirlanishga olib keldi. Bundan tashqari, virtual o'yinlarning yosh bolalarga ta'siri ularning xulq-atvori va tajovuzkorligiga uzoq muddatli ta'siri haqida tashvish uyg'otdi. Virtual o'yinlar bilan bog'liq eng munozarali mavzulardan biri zo'ravon o'yinlar va haqiqiy zo'ravonlik o'rtasidagi potentsial bog'liqlikdir. Bu masala bo'yicha aniq konsensus mavjud bo'lmasa-da, ba'zi tadqiqotlar zo'ravon o'yinlar o'ynash va geymerning tajovuzkorligi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda virtual o'yinlar domiga tushib qolayotganlar ko'payib bormoqda. Eng achinarlisi shundaki, bunday insonlarning aksariyat qismini yoshlar tashkil etmoqda. Yaratilayotgan virtual o'yinlar yildan-yilga o'zgarib, yanada qiziqarli bo'lib borayotganligi sababli, ularga bog'lanib qolayotyotganlarning soni ortib bormoqda. Bunday o'yinlar ularni o'ynayotganlarning vaqtini olib, sog'lig'iga va ruhiy holatiga juda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Hikmat Mashrab o‘g‘li Anarboev. Virtual o‘yinlar va ularning jamiyatga ta’siri. Academic Research in Educational Sciences. Volume 4 | Issue 5 | 2023.
2. Murodullo o‘g‘li, J. U. APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN TECHNICAL SYSTEMS IN ENGINEERING FIELDS.
3. Jurayev, O. M. o‘g‘li ., Suvonov, B. I. o‘g‘li ., & Xayriddinov, S. B. (2024). INKLÝUZIV TA’LIMNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. GOLDEN BRAIN, 2(12), 105–108. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11501150>
4. Jurayev, O. M. o‘g‘li ., Suvonov, B. I. o‘g‘li ., & Xayriddinov, S. B. (2024). PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH. GOLDEN BRAIN, 2(12), 100–104. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11501095>
5. Хайдардинов, Ш. Б. (2024). ФИЛОСОФСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Экономика и социум*, (2-2 (117)), 669-672.
6. Raxmonov, X., & Sunatov, J. R. (2022). O ‘ZBEK TILI KOMPYUTER LINGVISTIKASI YO ‘NALISHIDA OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOTLAR. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
7. Sunatov, J. R., Shamalova, G., & Maxmanazarov, O. (2024). TA’LIMDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH (MS POWERPOINT AMALIY DASTURIY TA’MINOT MISOLIDA). *Talqin va tadqiqotlar*, (28).
8. Suvonov, B., & Jamilova, S. (2024). SUN’IY INTELLEKTUAL TIZIMLARDA NOANIQ MANTIQNING AHAMIYATLILIGI VA UNING ANIQ MANTIQDAN FARQI. *Interpretation and researches*, (4 (26)).
9. Sunatov, J. R. (2023, December). TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARING O ‘RNI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND*

PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions" (Vol. 1, No. 01).

10. Suvonov, B. I. (2023). INFORMATION AND COMMUNICATION SYSTEMS FOR TECHNOLOGICAL PROCESS MANAGEMENT: A COMPREHENSIVE REVIEW. *Экономика и социум*, (11 (114)-2), 440-443.
11. Abduvaliyev, A. A., & Sunatov, J. T. (2024). IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA TREND MEZONIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Экономика и социум*, (2 (117)-1), 69-73.
12. Sunatov, J. R., Rustamov, R., & Dustmurodova, M. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA FONETIK TAHLIL JARAYONI. *Modern Science and Research*, 3(5), 191-195.
13. Asror o‘g‘li, A. O., & Rahmon o‘g‘li, S. E. (2024). TA’LIMGA VEB PLATFORMALARNI JORIY ETISHNI TAHLIL QILISH. GOLDEN BRAIN, 2(8), 92-97.
14. Sa’dullayev, A., & Asrorov, O. (2024). THE ESSENCE OF NEW PEDAGOGICAL TERMS DURING THE REFORMS IMPLEMENTED IN THE FIELD OF EDUCATION. "Science Shine" International scientific journal, 14(1).

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827387>

## RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA PSIXOLOGIYADAGI ROLI

**Xidirova Noila Boymurotovna**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

**Islomov Abram Islambay o‘g‘li**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

**Bozorova Ruxsora**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning psixologiya sohasidagi o‘rni va roli tahlil qilinadi. Raqamli vositalar inson psixikasiga qanday ta’sir qilishi, ijtimoiy tarmoqlar va internetga qaramlikning salbiy oqibatlari, shuningdek, psixologik yordamda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklari ko‘rib chiqiladi. Maqolada sun’iy intellektning psixologiyaga qo‘sghan hissasi, onlayn maslahatlar va terapiya imkoniyatlari ham muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Raqamli texnologiyalar, psixologiya, ijtimoiy tarmoqlar, internetga qaramlik, sun’iy intellekt, onlayn terapiya, psixologik yordam.

### Kirish

Zamonaviy texnologiyalar hayotimizning barcha jahbalariga kirib kelgan bo‘lib, ular orasida raqamli vositalar psixologiyaga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar insonlar o‘rtasidagi muloqot usullarini o‘zgartirib, ularning ruhiy holatiga ham sezilarli darajada ta’sir qiladi. Ushbu maqola raqamli texnologiyalar va psixologiya o‘rtasidagi munosabatni, ularning ijobiy va salbiy ta’sirlarini tahlil qilishga qaratilgan.

## Asosiy qismlar:

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanib borishi natijasida raqamli texnologiyalar deyarli barcha sohalarga kirib bordi. Texnologiyalarni bunday keskib rivojlanib borishi psixologiyaga ham ta'sir o'tkazmasdan qolmadı. Albatta, bunday rivojlanish avvalambor barcha sohani rivojlanishini tezlashtirgan bo'lsada, ularning bir qancha salbiy ta'sirlari ham mavjud. Quyida ushbu salbiy ta'sirlar va ijobjiy ta'sirlarni kengroq yoritib beramiz:

### 1. Raqamli texnologiyalarning psixologiyaga ta'siri

Raqamli texnologiyalar insonlarning fikrlash jarayonlariga, ularning stressga chidamliligiga va his-tuyg'ularini boshqarishiga ta'sir qiladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi "soxta ideal hayot" ko'rinishlari ko'pincha o'z-o'zini past baholash, ruhiy bosim va yolg'izlik kabi psixologik muammolarni keltirib chiqaradi. Natijada inson o'z hayotini ijtimoiy tarmoqlardagi "ideal hayot" solishtiradi va o'z hayotidan qoniqmaslikka olib keladi va unda shaxsiy rivojlanish pasayish boshlanadi hamda umidsizlikka sabab bo'ladi.

Raqamli texnologiyalar psixologiya sohasida inqilobiy o'zgarishlar olib kelib, insonlarning ruhiy holati, xulq-atvori va ijtimoiy muloqotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu ta'sir turli darajalarda namoyon bo'lmoqda: shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar, stressni boshqarish, muammoli xatti-harakatlar va psixologik yordam olish jarayonlari raqamli texnologiyalar tufayli o'zgarib bormoqda.

### 1. Ijtimoiy tarmoqlar va psixologiya

### 2. Internetga qaramlik va uning oqibatlari

## Ijtimoiy tarmoqlar va psixologik muammolar

Ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlar bir-birlariga yaqin bo'lib tuyulsa-da, ko'pincha ularga haddan tashqari bog'lanish ruhiy holatga zarar yetkazadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlarda ortiqcha vaqt o'tkazish depressiya, stress va kayfiyatning pasayishiga olib kelishi mumkin. Real hayotdagi do'stlari o'rnini virtual do'stlar egallaydi. Bu asosan og'ir turmush tarzini boshidan o'tkazayotgan, yoshligidan stress ta'rige tushgan yoshlarga ko'proq ta'sir qiladi. Ijtimoiy

tarmoqlardagi “to‘r” tashlovchi firibgarlar ana shunday yoshlarga o‘zini hamdard sifatida ko‘rsatib o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanishadi.

Ijtimoiy tarmoqlar zamонавиуу raqamli texnologiyalarning asosiy komponentlaridan biridir. Bu platformalar insonlar o‘rtasida virtual muloqot qilishni osonlashtiradi, lekin ular ikki tomonlama ruhiy salomatlikka ta’sir ko‘rsatadi.

#### *Ijobiy ta’sirlar:*

Qo‘llab-quvvatlash tarmog‘i: Ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlar do‘stlar, oila a’zolari va hamkasblar bilan oson aloqada bo‘lishadi. Bu ular uchun hissiy yordam manbai bo‘lishi mumkin.

Axborot olish: Ijtimoiy tarmoqlar orqali foydalanuvchilar psixologik muammolar, ruhiy salomatlikka oid masalalar va o‘z-o‘zini rivojlantirish texnikalari haqida foydali ma’lumotlarga ega bo‘lishadi.

#### *Salbiy ta’sirlar:*

FOMO (Fear of Missing Out): Ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarning muvaffaqiyati yoki turmush tarzini ko‘rib, o‘z hayoti bilan qoniqmaslik, o‘z-o‘zini past baholash hissi kuchayishi mumkin.

### **Internetga qaramlik**

Internetga qaramlik raqamli davrning keng tarqalgan muammolaridan biri bo‘lib, bu qaramlik inson hayotining turli jihatlariga, jumladan, ijtimoiy aloqalar, ish unumdarligi va ruhiy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ilgari hamma ishga vaqt topilgan bo‘lib, raqamli texnologiyalar rivojlanib borgan sari rejalashtirilgan ishlarni qilishga vaqtning yetmaslik holatlariga aynan internetga qaramlik oqibatidir.

Internetga qaramlik – bu insonning raqamli vositalarga, xususan internetga haddan tashqari bog‘lanib qolishi natijasida ijtimoiy, psixologik va jismoniy salomatligining zarar ko‘rishi. Internetga qaramlik quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

O‘yinga qaramlik: Ko‘plab foydalanuvchilar onlayn o‘yinlarga ko‘p vaqt ajratib, kundalik vazifalarini bajara olmay qolishadi.

Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik: Ijtimoiy tarmoqlarda doimiy ravishda muloqot qilish yoki yangiliklarni ko‘rish inson diqqatini pasaytirishi, uyqu va kayfiyatni buzishi mumkin.

Axborotga qaramlik: Uzluksiz ravishda yangilik va boshqa ma’lumotlarni izlash, xotira va kognitiv jarayonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik oqibatlar:

Stress va xavotirlik: Internetga qaramlik insonga ruhiy bosim o‘tkazadi, bu esa xavotirlik va stress darajasini oshiradi.

Uyqu buzilishlari: Uzoq muddatli internet foydalanish uyqu buzilishlariga olib kelishi mumkin, bu esa kayfiyat va kognitiv funksiyalarni yomonlashtiradi.

Ijtimoiy ajralish: Ko‘proq virtual muloqot qilish bilan real hayotdagi ijtimoiy aloqalar zaiflashadi.

## **2. Onlayn maslahatlar va terapiya**

Raqamli texnologiyalar yordamida psixologik yordam olish imkoniyatlari ham kengaygan. Onlayn terapiya va maslahat xizmatlari bemorlarga masofadan turib professional yordam olish imkonini beradi. Bu psixologik muammolarni hal qilishda samarali vositalardan biri bo‘lib, ayniqsa pandemiya davrida keng qo‘llanildi.

### **Raqamli vositalar orqali psixologik yordam**

Raqamli texnologiyalar ruhiy salomatlik bo‘yicha yordam olishni osonlashtiradi. Bugungi kunda onlayn maslahat xizmatlari, terapeutik dasturlar va psixologik yordam ko‘rsatish imkoniyatlari kengaymoqda.

Onlayn psixoterapiya va maslahatlar:

Masofaviy terapiya: Psixologik muammolarni hal qilish uchun psixoterapevtlar bilan video yoki audio qo‘ng‘iroqlar orqali maslahat olish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Mental salomatlik ilovalari: Meditatsiya, stressni boshqarish, kayfiyat kuzatuvi kabi xizmatlarni taklif qiluvchi ilovalar ruhiy holatni nazorat qilish va o‘z-o‘ziga yordam berish uchun qulay vositadir.

Afzalliklari:

Keng omma uchun ochiqlik: Onlayn maslahatlar va dasturlar har qanday joydan foydalanish mumkin bo‘lib, odamlar uchun qulaylik yaratadi.

Davolashning uzluksizligi: Raqamli vositalar orqali psixologik yordam ko‘rsatishning davomiyligi ta’minlanadi, bu esa uzoq muddatli natijalar beradi.

Kamchiliklari:

Shaxsiy muloqotning yo‘qligi: Onlayn yordamda yuzma-yuz muloqot yetishmasligi hissiy aloqani kamaytirishi mumkin.

Texnologik qiyinchiliklar: Ba’zi bemorlar texnologiyalardan foydalanishda qiynalishi yoki internetga doimiy ulanish imkoniyatiga ega bo‘lmasisi mumkin.

### **3. Sun’iy intellekt va psixologiya**

Sun’iy intellekt texnologiyalari psixologiyaga yangi imkoniyatlar olib bermoqda. Ular yordamida insonlarning xulq-atvorini tahlil qilish, depressiya, xavotirlik va boshqa psixologik muammolarni erta aniqlash mumkin. Bu texnologiyalar ruhiy holatni kuzatish va diagnostika qilish jarayonlarini osonlashtiradi.

Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari psixologiya sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. AI yordamida insonning ruhiy holatini, his-tuyg‘ularini, xatti-harakatlarini tahlil qilish va ularni davolashning yangi usullari ishlab chiqilmoqda.

AI imkoniyatlari:

Diagnostika: Sun’iy intellekt ruhiy salomatlikka oid ma’lumotlarni tahlil qilib, depressiya, xavotir yoki stress kabi muammolarni aniqlashda yordam beradi.

Tuzilish: AI yordamida maxsus treninglar va meditatsiya mashqlari foydalanuvchilarining ehtiyojlariga moslashtirilgan holda ishlab chiqiladi.

AI asosida qurilgan dasturlar:

AI asosidagi terapevtik dasturlar orqali bemorlar xatti-harakatlari kuzatiladi va ularga maxsus tavsiyalar beriladi.

### **Raqamli texnologiyalarning ta’siri bo‘yicha psixologik modellar**

Raqamli texnologiyalarning psixologik ta’sirini tushuntirish uchun turli nazariy modellar qo‘llaniladi:

Foydalanish va mammuniyat modeli (Uses and Gratifications Theory): Ushbu model foydalanuvchilarning raqamli texnologiyalardan nima maqsadda foydalanishini va ularidan qanday qoniqish olishini tushuntiradi. Ijtimoiy muloqot, axborot olish va o‘yin-kulgi raqamli vositalarni ishlatishning asosiy sabablari hisoblanadi.

Media ta’sir modeli (Media Effects Theory): Bu model raqamli texnologiyalar va ommaviy axborot vositalarining inson ongiga va xulq-atvoriga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qiladi.

### Xulosa

Raqamli texnologiyalar psixologiya sohasiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Ularning to‘g‘ri qo‘llanilishi insonlarning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlashda foydali bo‘lishi mumkin, ammo haddan tashqari foydalanish psixologik muammolarni keltirib chiqarishi ham ehtimoldan holi emas. Shuning uchun raqamli vositalarni me’yorida va to‘g‘ri ishlatish muhim ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Smith, A., & Anderson, M. (2018). Social Media Use in 2021. Pew Research Center.
2. Kuss, D. J., & Griffiths, M. D. (2017). Internet addiction: A systematic review of epidemiological research for the last decade. Current pharmaceutical design, 20(25), 4026-4052.
3. Wilson, C., & Dufour, R. (2019). The role of artificial intelligence in modern psychology. Journal of Applied Psychology, 104(3), 425-435.
4. Weitzman, E. (2020). Digital therapy: The rise of online mental health services. Psychology Today.
5. Young, K. S. (2017). Internet addiction: Diagnosis and treatment considerations. Journal of Contemporary Psychotherapy, 39(4), 241-246.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827409>

## PERFORM ADDITION AND MULTIPLICATION OPERATIONS IN EXCEL

**Xayriddinov Shavkat Botirovich**

Teacher og the University of Economics and Pedagogy

E-mail: [xayriddinovshavkat2@gmail.com](mailto:xayriddinovshavkat2@gmail.com)

**Suvonov Behruz Iskandar o‘g‘li**

Teacher og the University of Economics and Pedagogy

E-mail: [behruzsuvonov0@gmail.com](mailto:behruzsuvonov0@gmail.com)

### **ANNOTATION**

*This article analyzes the possibilities of mathematical functions of the Excel table editor. Among the mathematical functions, multiplication and addition were used and the result was obtained using this operation. Information is provided on the use of multiplication and addition operations.*


**Keywords.** Excel program, table editor, toolbar, function, division, multiplication.

Microsoft Excel (sometimes called Microsoft Office Excel) is a program for working with spreadsheets created by Microsoft Corporation for Microsoft Windows, Windows NT and Mac OS, as well as Android, iOS, Windows Phone. It offers economic-statistical calculations, graphic tools. The programming language of Excel 2008 on the Mac OS X platform is VBA (Visual Basic for Applications). Microsoft Excel is a component of Microsoft Office, and today Excel is among the most popular applications in the world [1].

A computer has several application software. Among them, the Excel program is called a table editor. Because Excel mainly works with tables. In addition, it has the

ability to perform calculations. An Excel spreadsheet has several functions. They can be used in various fields. For example, when performing accounting operations, outputting times, outputting some values, etc.

Before starting work, we will enter MS Excel. Then we go to the “Formula” section from the equipment panel. There are various functions there. For example, the functions “Mathematicheskie”, “Poslednie”, “Data i vremya”, “Logicheskie” and so on. We will consider the implementation of some of them.



Picture 1. MS Excel table editor interface.

Let's try using some of the commands in the “Mathematics” section. First of all, we need to write down the list. We enter the “Mathematicheskie” section. Then we select the “MUMNOJ” command from among the commands.

	A	B	C	D	E	F
1						
2		№	Mahsulotlar	Narxi	Og'irligi	Umumiyl summa
3		1	Olma	3000	5	
4		2	Anor	5000	4	
5		3	Apelsin	4500	4	
6		4	Nok	3500	7	
7		5	Mandarin	6000	2	
8		6	Banan	5500	3	
9						
10			Jami			
11						

Picture 2. List

Then we determine the place of the numbers being multiplied. The location should be set to Massiv 1 and Massiv 2.

A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M	N	O	P	Q	R
1																	
2		№	Mahsulotlar	Narxi	Og'irligi	Umumiyl summa											
3		1	Olma	3000	5	=МУМНОЖ()											
4		2	Anor	5000	4												
5		3	Apelsin	4500	4												
6		4	Nok	3500	7												
7		5	Mandarin	6000	2												
8		6	Banan	5500	3												
9																	
10			Jami														
11																	
12																	
13																	
14																	
15																	
16																	
17																	
18																	

Picture 4. The process of performing multiplication

A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M	N	O	P	Q	R
1																	
2		№	Mahsulotlar	Narxi	Og'irligi	Umumiyl summa											
3		1	Olma	3000	5	=НОЖ(D3;E3)											
4		2	Anor	5000	4												
5		3	Apelsin	4500	4												
6		4	Nok	3500	7												
7		5	Mandarin	6000	2												
8		6	Banan	5500	3												
9																	
10			Jami														
11																	
12																	
13																	
14																	
15																	
16																	
17																	
18																	

Picture 5. Determining the location of the action.

A	B	C	D	E	F	G
1						
2		№	Mahsulotlar	Narxi	Og'irligi	Umumiyl summa
3		1	Olma	3000	5	15000
4		2	Anor	5000	4	
5		3	Apelsin	4500	4	
6		4	Nok	3500	7	
7		5	Mandarin	6000	2	
8		6	Banan	5500	3	
9						
10			Jami			
11						

Picture 6. Result.

“Ok” button is clicked. The result will be as shown in Figure 6. If you drag down the corner, Excel will multiply everything. Same as in Picture 7.

A	B	C	D	E	F	G
1						
2	Nº	Mahsulotlar	Narxi	Og'irligi	Umumiy summa	
3	1	Olma	3000	5	15000	
4	2	Anor	5000	4	20000	
5	3	Apelsin	4500	4	18000	
6	4	Nok	3500	7	24500	
7	5	Mandarin	6000	2	12000	
8	6	Banan	5500	3	16500	
9		Jami				
10						
11						

Picture 7. Total all results.

In conclusion, it can be said that the Excel table editor is one of the most used and very useful applications for users. It is very convenient to work with tables. In addition, Excel has the ability to work with various functions.

### Used literature.

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Microsoft\\_Excel](https://uz.wikipedia.org/wiki/Microsoft_Excel)
2. Murodullo o‘g‘li, J. U. APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN TECHNICAL SYSTEMS IN ENGINEERING FIELDS.
3. Jurayev, O. M. o‘g‘li ., Suvonov, B. I. o‘g‘li ., & Xayriddinov, S. B. (2024). INKLÝUZIV TA’LIMNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. GOLDEN BRAIN, 2(12), 105–108. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11501150>
4. Jurayev, O. M. o‘g‘li ., Suvonov, B. I. o‘g‘li ., & Xayriddinov, S. B. (2024). PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH. GOLDEN BRAIN, 2(12), 100–104. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11501095>
5. Хайдаров, Ш. Б. (2024). ФИЛОСОФСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. Экономика и социум, (2-2 (117)), 669-672.
6. Raxmonov, X., & Sunatov, J. R. (2022). O ‘ZBEK TILI KOMPYUTER LINGVISTIKASI YO ‘NALISHIDA OLIB BORILGAN ILMIY

TADQIQOTLAR. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).

7. Sunatov, J. R., Shamatova, G., & Maxmanazarov, O. (2024). TA'LIMDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH (MS POWERPOINT AMALIY DASTURIY TA'MINOT MISOLIDA). *Talqin va tadqiqotlar*, (28).
8. Suvonov, B., & Jamilova, S. (2024). SUN'IY INTELLEKTUAL TIZIMLARDA NOANIQ MANTIQNING AHAMIYATLILIGI VA UNING ANIQ MANTIQDAN FARQI. *Interpretation and researches*, (4 (26)).
9. Suvonov, B., & Islomov, A. (2024, May). VIRTUAL REALITY AND THE PRINCIPLES OF USING VIRTUAL REALITY IN THE EDUCATIONAL PROCESS. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 57-59).
10. Suvonov, B. I. (2023). INFORMATION AND COMMUNICATION SYSTEMS FOR TECHNOLOGICAL PROCESS MANAGEMENT: A COMPREHENSIVE REVIEW. *Экономика и социум*, (11 (114)-2), 440-443.
11. Abduvaliyev, A. A., & Sunatov, J. T. (2024). IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA TREND MEZONIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Экономика и социум*, (2 (117)-1), 69-73.
12. Sunatov, J. R., Rustamov, R., & Dustmurodova, M. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA FONETIK TAHLIL JARAYONI. *Modern Science and Research*, 3(5), 191-195.
13. Asror o'g'li, A. O., & Rahmon o'g'li, S. E. (2024). TA'LIMGA VEB PLATFORMALARNI JORIY ETISHNI TAHLIL QILISH. GOLDEN BRAIN, 2(8), 92-97.
14. Sa'dullayev, A., & Asrorov, O. (2024). THE ESSENCE OF NEW PEDAGOGICAL TERMS DURING THE REFORMS IMPLEMENTED IN THE FIELD OF EDUCATION. "Science Shine" International scientific journal, 14(1).

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827432>

## INGLIZ TILINING O'ZBEKISTONDAGI AHAMIYATI

**Jurayev O'tkirbek Murodullo o'g'li**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

E-mail: [otkirbekjurayev4@gmail.com](mailto:otkirbekjurayev4@gmail.com)

**Sunatov Jo'rabek Turg'unbek o'g'li**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

E-mail: [jurabek.sunatov666@mail.ru](mailto:jurabek.sunatov666@mail.ru)

**Jamilova Sevinchbonu Salohiddin qizi**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

### *ANNOTATSIYA*

*Ushbu maqolada ingliz tilining O'zbekistondagi o'rni va ahamiyati haqida ma'lumot berilgan. Chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan ishlar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** chet tili, umumiyl o'rta ta'lim, o'rta-maxsus ta'lim, hamkorlik, taraqqiyot, tadqiqot, individuallik.

Inson dunyoga kelibdiki, tashqi muhitdan, tashqi olamdan doimo nimadir bilish, nimadir o'rganish harakatida bo'ladi. Chaqaloqlik paytida qanday ovqat yeish kerakligini, 2-3 yoshga to'lganda qanday yurish va yugurishni o'rganadi. Yosh qanchalik katta bo'lib boravergani sari o'rgangan narsalari inson uchun kam ekanligini biladi, natijada yanada ko'proq narsa o'rganishga harakat qiladi. Odamzot uchun eng asosiy va muhim bilimlarni beradigan joy — ta'lim muassasalari hisoblanadi [1].

Bundan olti asr avval buyuk o'zbek yozuvchisi va o'zbek tilining asoschisi Alisher Navoiy shunday degan edi: "til-biz uning qadrini ifoda eta olmaydigan marvariddir". Buyuk shoир takidlaganidek, chet tillarni va ularning qadriyatlarini

o‘rganish hali ham insonlarni karyera qilishi, jamiyatda o‘z o‘rni topish va hatto ona zaminimiz O‘zbekistonning go‘zal qiyofasini xalqaro sahnalarga olib chiqish uchun asosiy hamda zarur bolgan omil hisoblanadi. Shunday kerakli imkoniyatlarni bizga chet tillaridan biri bo‘lgan ingliz tili bera oladi.

Bilamizki, O‘zbekistonda insonning jinsi, tili, dini, e’tiqodi, millati, irqi hamda ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar ta’lim olish huquqi kafolatlangan. Ta’lim olish jarayoni asosan quyidagi davrlarga bo‘linadi:

- mактабгача та’лим ва тарбия;
- умумиј о‘рта ва о‘рта максус та’лим (давлат мактаблари, xусусиј мактаблар, president мактаблари, litseyлар);
- касбиј та’лим (техникумлар ёки коллеј та’лими)
- олий та’лим (университетлар, институтлар);
- олий та’лидан кейинги та’лим (докторантуралар, mustaqil tadqiqotchilik);

Ushbu ta’lim jarayonlarida hozirgi kunda ma’naviy-ma’rifiy axloq bilan birga ingliz tilini o‘qitishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu e’tibor ta’limning dastlabki bosqichlaridan ya’ni mактабгача та’лим jarayonidan boshlanib, toki oliy ta’liдан кейинги давргача давом etmoqda. Xususan, bolalar bog‘chasini rivojlantirish davlatni ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatdan rivojlantirish demakdir. Buni esa hozirda ta’lim jarayoning ajralmas qismiga aylangan chet tilini o‘qitish orqali amalgalashirish mumkin.

Hozirda nufuzli Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan uch yilda bir o‘tkaziluvchi tadqiqotlarga ko‘ra Finlandiya yoshlari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini ko‘rsatishgan. Bu davlat yoshlari ayniqsa matematika, tabiiy fanlar, umumiy savodxonlik bo‘yicha yuqori natijalarga erishishmoqda. Bunga ta’lim jarayoni yetita tamoyil: tenglik, bepul, individuallik, amaliyot, ishonch, xohish-istak, mustaqillik orqali olib borilmoqda.

Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida Finlandiya ta’limini misol qilib, maktabda

o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham muhit ham o‘zgarmasligini ta’kidlaydi.

Chet tillari orasida ingliz tili eng ko‘p so‘zlashiladigan til hisoblanadi. Aniqlanishicha, bugungi kunda ingliz tili 2 milliard so‘zlashuvchilariga ega bo‘lgan, eng ko‘p tushuniladigan tilga aylanib ulgurgan. U nafaqat ommaviy til balki o‘z o‘rganuvchilari uchun ma’lum sabablarga ko‘ra, ahamiyatli bo‘lgan til hisoblanadi. Xalqaro bozor iqtisodiyotida hamda milliy agentliklarda chet tilini bilgan shaxslar uchun talab juda ham yuqori. Ingliz tilining ta’sir doirasi 50 yoki 60 yil oldingiga nisbatan ancha kengaygan. Bunga bir necha sabablarni misol qilib olishimiz ham mumkin. Masalan, ingliz tili xalqaro BMT tashkilotining rasmiy tili, biznes, ommaviy axborot vositalari, online dunyo tili, bundan tashqari ko‘plab akademiyalar tili hamdir.

Umuman olganda ingliz tilini kengayish doirasi O‘zbekistonda mustaqillik erishgandan keyin boshlanishiga qaramasdan, yaqin davrgacha judayam sust holda, an’anaviy o‘qitish uslubi (traditional way) bilan kechgan. Hozirda esa interaktiv darslar ko‘proq kommunikativ uslubga tayangan holda, qiziqarli tarzda iduktiv (inductive way) va deduktiv (deductive) yo‘l bilan til o‘rganuvchilarni samarali o‘qitilishiga bosqichma-bosqich erishilmoxda. Lekin shunga qaramay, ingliz tilida so‘zlashish indeksi (EF English Proficiency Index) tadqiqotlariga ko‘ra O‘zbekiston 112 ta davlat orasida 88 o‘rinda turmoqda. Reyting bo‘yicha O‘zbekiston Albaniya hamda Suriya o‘rtasida joylashgan bo‘lib, ingliz tilini bilish darajasi juda past deb baholangan davlatlar guruhiga kiritilgan.

Ushbu yillardan beri boshlangich ta’limdan keyingi ta’lim jarayonida konsullik tomonidan almashinilgan tajribalar asosida ingliz tilini o‘qitilishi davom etmoqda. Ammo boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitilishi O‘zbekiston Respublikasi sobiq Prezidenti I.A.Karimov tomonidan qabul qilingan 2012 yil 10 dekabrdagi PQ-1875-sonli “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroridan keyin boshlandi.

Unga ko‘ra, 2013/2014 o‘quv yilidan boshlab ingliz tilini boshlang‘ich sinfning dastlabki yilidan o‘qitilishi belgilandi

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi “Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishda milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlarini tatbiq qilish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 395-son qarorni qabul qildi. Unga ko‘ra, 2020–2021yildan boshlab oliy ta’lim muassasalariga imtihon topshiruvchi abuturiyentning fanlar majmuasiga chet tili kiritilgan holda chet tilini bilish bo‘yicha kamida B2 sertifikati bo‘lsa, unga ushbu blokdan test bajarishdan ozod etilishi hamda maksimal ball berilishi (qaysi blokda bo‘lsa) to‘g‘risida imtiyoz berildi. Lekin, ushbu qaror amalga oshirilgan davrning avvalida Davlat Test Markazining Chet tillarini egallash bo‘yicha boshqarma ma’lumotlariga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalariga hujjat topshirgan 1 066 926 nafar abituriyentning 11 250 nafarida imtiyoz beruvchi xalqaro IELTS hamda milliy CEFR chet tili sertifikati mavjud bo‘lgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, barcha chet tillarining, ayniqsa ingliz tilining O‘zbekistondagi ahamiyati juda yuqoridir. Chunki juda ko‘plab ishlarni bajarishda va aksariyat korxonaarda ishlashda ingliz tilini bilish va o‘rganish talab etilmoqda. Tashkilot va korxonalarning boshqa korxonalar bilan o‘zaro hamkorligida hamkorlik bitimlarining imzolash va tuzishda ingliz tili juda muhim o‘rin egallamoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Sunatov, J. R. (2023, December). TA’LIMDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARING O‘RNI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions” (Vol. 1, No. 01).
2. Murodullo o‘g‘li, J. U. APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN TECHNICAL SYSTEMS IN ENGINEERING FIELDS.
3. Jurayev, O. M. o‘g‘li ., Suvonov, B. I. o‘g‘li ., & Xayriddinov, S. B. (2024). INKLUYUZIV TA’LIMNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. GOLDEN BRAIN, 2(12), 105–108. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11501150>
4. Jurayev, O. M. o‘g‘li ., Suvonov, B. I. o‘g‘li ., & Xayriddinov, S. B. (2024). PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH. GOLDEN BRAIN, 2(12), 100–104. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11501095>

5. Хайдардинов, Ш. Б. (2024). ФИЛОСОФСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Экономика и социум*, (2-2 (117)), 669-672.
6. Raxmonov, X., & Sunatov, J. R. (2022). O 'ZBEK TILI KOMPYUTER LINGVISTIKASI YO 'NALISHIDA OLIB BORILGAN ILMUY TADQIQOTLAR. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
7. Sunatov, J. R., Shamatova, G., & Maxmanazarov, O. (2024). TA'LIMDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH (MS POWERPOINT AMALIY DASTURIY TA'MINOT MISOLIDA). *Talqin va tadqiqotlar*, (28).
8. Suvonov, B., & Jamilova, S. (2024). SUN'IY INTELLEKTUAL TIZIMLARDA NOANIQ MANTIQNING AHAMIYATLILIGI VA UNING ANIQ MANTIQDAN FARQI. *Interpretation and researches*, (4 (26)).
9. Sa'dullayev, A., & Asrorov, O. (2024). THE ESSENCE OF NEW PEDAGOGICAL TERMS DURING THE REFORMS IMPLEMENTED IN THE FIELD OF EDUCATION. " *Science Shine*" International scientific journal, 14(1).
10. Suvonov, B. I. (2023). INFORMATION AND COMMUNICATION SYSTEMS FOR TECHNOLOGICAL PROCESS MANAGEMENT: A COMPREHENSIVE REVIEW. *Экономика и социум*, (11 (114)-2), 440-443.
11. Abduvaliyev, A. A., & Sunatov, J. T. (2024). IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA TREND MEZONIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Экономика и социум*, (2 (117)-1), 69-73.
12. Sunatov, J. R., Rustamov, R., & Dustmurodova, M. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA FONETIK TAHLIL JARAYONI. *Modern Science and Research*, 3(5), 191-195.
13. Asror o'g'li, A. O., & Rahmon o'g'li, S. E. (2024). TA'LIMGA VEB PLATFORMALARNI JORIY ETISHNI TAHLIL QILISH. GOLDEN BRAIN, 2(8), 92-97.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827466>

## MAKTAB VA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI BAHOLASH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Temirov Xushnud Jamolovich**

Zangiota tuman ixtisoslashtirilgan maktabi, o‘quv ishlari bo‘yicha direktorning  
birinchi o‘rinbosari

E-mail: [xushnudtemirov88@gmail.com](mailto:xushnudtemirov88@gmail.com)

**Ismailov Ulug‘bek O‘ktamboy o‘g‘li**

Zangiota tuman ixtisoslashtirilgan maktabi, maktab maslahatchisi  
E-mail: [ulugbekismailov535@gmail.com](mailto:ulugbekismailov535@gmail.com)

*Annotatsiya:* Mazkur maqolada maktablardagi ta’lim sifatini baholash va boshqarish masalalarining zamonaviy va qulay usullari haqida fikr yuritiladi hamda ushbu mexanizmlarni amaliyotga joriy qilish borasida takliflar keltiriladi.

*Kalit so‘zlar:* ta’lim, boshqaruv, rahbar, mexanizm, metodologiya, muassasa.

**Kirish.** Maktab ta’lim tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonida ta’limning innovatsion shakllari va usullarini qo’llashga ko‘maklashadi. Shu bilan bir qatorda, ushbu sohadagi ishlar holatini tanqidiy tahlil qilish maktab ta’limi tizimi boshqaruvini tashkil etish, davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining (keyingi o‘rinlarda umumta’lim muassasalari deb yuritiladi) faoliyatini amaliy jihatdan muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnik holatini yaxshilash bo‘yicha tadbirlarni moliyalashtirishda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjudligi aniqlandi.

Zamonaviy pedagogika fani boshqaruv g‘oyalarini har tomonlama, turli nuqtai nazardan o‘rganishga intilish bilan bir qatorda ularni ta’lim amaliyotiga tatbiq etishning yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqadi. Bugungi kun pedagogika fanida tizimli yondashuv metodologiyasisiz boshqaruv muammolarining hal etilishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bunday yondashuvning joriy etilishi boshqaruvda tasodifiy va kutilmagan holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Tizimli yondashuvda ta’lim muassasasi tizim sifatida, ya’ni tashqi muhitda xizmat qilayotgan murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunda uning aloqalari va vositalarining mazmun va mohiyatiga ko‘ra ob’ektni bir butun, ya’ni yaxlit holda tasavvur qilish talab etiladi. Ta’lim muassasasini o‘rganishda alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan bir necha qismlarga ajratib, ular o‘rtasidagi aloqalar hamda o‘zaro bog‘liqlik xususiyatlari aniqlanadi, chunki har bir qism yaxlit tizimning o‘zgarishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Kengroq ma’noda tizimli yondashuv - bu falsafa metodologiyasi bilan tabiiy holdagi ilmiy tadqiqotlarning metodlari o‘rtasidagi vaziyatni egallab turuvchi fan, ilmiy bilish nazariyasining metodologik asoslaridir. Tizimli yondashuv fan sifatida aniq bir yangi tushunchalar bermaydi, lekin obyektni o‘rganishda o‘ziga xos yaxlitlik, umumiylilik, universallik, differensiallik kabi tushunchalar asosida mujassamlashtirilgan texnologiyalar, ya’ni tadqiqotning integratsion texnologiyalarini o‘z ichiga oladi. O‘quv-tarbiya jarayoniga boshqaruvning yangi mexanizmlarini va sifat standartlarini joriy etish, jamiyatda o‘qituvchi kasbining nufuzini oshirish, umumta’lim muassasalarining moddiy-texnik holatini yaxshilash orqali maktab ta’limi tizimini yanada takomillashtirish maqsadida: Quyidagilar maktab ta’limi tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi. Umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalash, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini ta’minalash; Ushbu sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta’lim vazirligining (keyingi o‘rinlarda – Vazirlilik) muvofiqlashtiruvchi roli va mas’uliyatini kuchaytirish, shuningdek,

vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mazkur yo‘nalishdagi vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini aniq belgilash va tartibga solish;

Rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo‘li bilan xalq ta’limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish; Xalq ta’limi muassasalari xodimlarini moddiy rag‘batlantirishni va ijtimoiy muhofaza qilishni yaxshilash, ularning samarali ishlashi uchun munosib sharoitlarni yaratish; Zarur tashkiliy-huquqiy va texnik-iqtisodiy sharoitlarni yaratish yo‘li bilan umumiyo‘rta va maktabdan tashqari ta’lim sohasida nodavlat xizmatlarni ko‘rsatishga oid faoliyat bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar (keyingi o‘rinlarda — nodavlat umumta’lim tashkilotlari) tarmog‘ini yanada rivojlantirish, ushbu sohaga davlatxususiy sheriklikning turli shakllarini samarali joriy etish; Maktab ta’limi tizimiga ilg‘or xorijiy tajribani, o‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan ta’lim berishning innovatsion usullarini joriy etish, o‘quv va o‘quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish, fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish; Xalq ta’limi muassasalarini boshqarish tizimiga zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shaffof va samarali jamoatchilik nazoratiga erishish, shu jumladan barcha muassasalarning telekommunikatsiya tarmoqlariga ulanishini ta’minlash, barcha foydalanishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar manbasini yaratish, ularning faoliyatini baholashning elektron reyting tizimini joriy etish; Avvalo, ta’lim jarayoni sathlarini ajratib ko‘rsatish, so‘ngra ularning har birida boshqaruva xususiyatlarini aniqlash kerak. Umuman olganda, ta’lim jarayonini boshqarish uchun to‘liq boshqaruva tsiklidan foydalanish kerak: uning natijalari to‘g‘risida ma’lumot olish, uni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va o‘quv jarayonini yanada rivojlantirish maqsadlarini shakllantirish, ularga erishishni rejalshtirish, o‘zlarini va talabalarni tashkil etish (va umuman maktabda - butun maktab jamoasi) rejani amalga oshirish, natijalarni

nazorat qilish, tahlil asosida jarayonning o‘zi ham, uni boshqarish ham tartibga solinishi kerak. O‘qitishni boshqarish mohiyatini aniqlash uchun menejmentning barcha jihatlarini birlashtirgan boshqaruv jarayonini tahlil qilishning dastlabki birligini aniqlash kerak. Bunday birlik boshqaruv holati deb ataladi.

Pedagogika nuqtai nazaridan uni tarbiyaviy-pedagogik vaziyat deyish mumkin. Ta’lim-tarbiyaviy vaziyat o‘qituvchi va talaba pedagogik o‘quv faoliyatining subyektlari sifatida faol ishtirok etadigan shart-sharoitlar majmuini birlashtiradi. Ushbu shartlar va sharoitlar to‘plami haqiqiy muhitni (ta’lim va tarbiyaviy vaziyat) tashkil etadi, unda talabaning boshlang‘ich holatidan sifat jihatidan yangisiga o‘tishiga ko‘maklashish uchun unga qanday ta’sir o‘tkazish to‘g‘risida qarorlar qabul qilinadi. Qaror qabul qilish boshqaruv faoliyatining maqsadi bilan bog‘liq va har qanday qarama-qarshilikni bartaraf etishga, muammoni hal qilishga qaratilgan.

Bundan tashqari, maktablarda rahbar faoliyatiga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Ta’lim muassasasi rahbarlari boshqaruv faoliyatining asosiy vazifasi ta’lim jarayonini tashkil etishda ijobiy natijalarga erishish uchun jamoada zaruriy sharoitlarni yaratish, raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash va yaxlit ta’lim tizimini rivojlantirish hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, muktab bilan ta’lim jarayonini o‘zaro bog‘liq holda yaxlit tizim deb hisoblasak, ularni boshqarish ham tizimli xususiyatga ega bo‘lishi kerak. Ta’lim muassasalarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga tizimli yondashuvning mazmun va mohiyatini quyidagi tamoyillar asosida ko‘rishimiz mumkin: Sub’yektlar faoliyatining maqsadga yo‘naltirilganligi; majmuaviyilik - ob’ekt o‘zaro bog‘langan tashkil etuvchi qismlarning majmuasi ekanligi; integrativlik-harakatlanish va rivojlanishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o‘zaro birligi; o‘zaro bo‘liqlik – ob’yekt alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit tizimning tashkil etuvchi qismi sifatida mavjudligi; kommunikativlik - tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o‘zaro ta’sir etish xususiyatlariga ega ekanligi; boshqaruv faoliyatining tizimli ob’yekti sifatida ta’lim muassasasining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari mavjud integrativ

sifatlar, alohida olingen tashkil etuvchi qismlardan birortasi ham bunday sifatlarga ega emas; tashkil etuvchi komponentlar, ular maktabning tashkiliy qismlari hisoblanadi; struktura - bu tashkil etuvchi qismlar o‘rtasidagi belgilangan aloqa va munosabatlar; tizimning va uning alohida komponentlarining funksional tavsiflari;

Menejmentning mohiyati va boshqaruva faoliyati bosqichlari to‘g‘risida yuqoridagi tushunchaga asoslanib quyidagi ish ta’rifi taklif etiladi: o‘qitishni boshqarish - bu o‘qituvchi va talabaning o‘zaro yo‘naltirilgan va bir-biriga bog‘liq bo‘lgan o‘zaro ta’siri sharoitida ta’lim va tarbiyaviy vaziyatlarni bashorat qilish, loyihalashtirish, hal etish, ularni rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirishning maqsadga muvofiq yo‘nalishida motivatsiya va aks ettirish vositalarini taqdim etish.

**Xulosa.** Bunga bog‘liq maktab o‘quvchisining ta’limini boshqarish turi boshqaruva harakatlarini amalga oshirishning algoritmik xususiyatiga ko‘ra dasturiy va vaziyatli, boshqaruva harakatlari paydo bo‘lish manbasiga ko‘ra esa buyruqbozlik va refleksiv bo‘lishi mumkin. Ushbu qutbli turlar orasida oraliq mavjud. Ta’limni boshqarish turlarining bunday bo‘linishi, albatta, rasmiy xususiyatga ega. Maktablarda ta’lim sifatini yaxshilashda hamda boshqarishda nafaqat rahbar faoliyatiga, balki boshqa omillarga ham e’tibor qaratilsagina undagi o‘zgarishlarga va rivojlanishlarga erishishimiz mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Abdurahmonov Q.Yu.Odegov va boshqalar. “Personalli boshqarish”. Toshkent: “Shark”, 1998.
2. Abdurahmonov Q.H.D.N.Raximova va boshqalar. “Davlat xizmati personalini boshqarish”. - Toshkent: “Akademiya”, 2002.
3. Adizova T. M. “Boshqaruv muloqoti”. - Toshkent: Nizomiy nomli TDPU, 2000.
4. Azizzoxjayeva N.N. “O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi” - Toshkent: Nizomiy nomli TDPU, 2000.
5. “Maktab ichidagi boshqarish: nazariya va amaliyot savollari” Ed. T.I.Shamovoy.- M. 1991.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827492>

## MUXAMMAD IBN AL-XORAZMIY – QOMUSIY OLIM VA ALGEBRA FANI ASOSCHISI

**Meyliyeva Zumrad Xudayberganovna**

“Ichan-Qal’ a” davlat muzey-qo‘riqxonasi katta ilmiy xodimi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Al Xorazmiyning hayot yo‘li va u tomonidan yaratilgan kashfiyot va yangiliklar to‘g‘risida, shuningdek uning asarlari haqida qisqacha ma’lumot berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** “*Baytul Xikma*”, *Algorithmus*, Bonkompani, K.Fogel, I.Sevilskiy, *Ibn Nadim*, “*Fixrist*”.

## **MUHAMMAD IBN AL-KHORAZMI - THE FOUNDER OF THE SCIENCE OF ALGEBRA.**

### **ABSTRACT**

*This article provides brief information about Al Khorazmi’s life path and his discoveries and innovations, as well as his works.*

**Keywords:** “*Baytul Xikma*”, *Algorithmus*, Bonkompani, K.Fogel, I.Sevilskiy, *Ibn Nadim*, “*Fixrist*”.

Jahon ilm-ma’riffatining buyuk nomoyondasi Muxammad ibn Muso al Xorazmiy taxminan 783 yilda Xorazmiydadunyoga kelib, 847-850 yillar oraligida Bogddodda vafot etgan.

Xorazmiy tug‘ilib voyaga yetayotgan davrda Movaraunnaxr yirik madaniy va savdo markazlaridan biri hisoblanar edi.

Olimning to‘liq ismi Abu Abdullox Muxammad ibn Muso al-Xorazmiy Al Majusiydir, “Abu-Abdullox Muhammad” Islomga o‘tganlarga beriladigan an‘anaviy ism bo‘lgan. Xorazmiyning avlodlari majusiy koxinlaridan, ya’ni mog‘ullardan bo‘lib,

islomni otasi qabul qilgan bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda yozilishiga ko‘ra Xorazmiy boshlangich ma’lumotni o‘z uyida olgan, chunki uning otasi qadimiy diniy hamda dunyoviy bilimlardan habardor bo‘lgan. Shu tufayli Xorazmiy bolaligidanoq bu ilmiy manbalarni o‘rganish imkoniyatiga ega edi. Muhammad Al Xorazmiy matematika bilan juda berilib shugullangan, bu sohaga oid barcha asarlarni qunt bilan o‘rgangan, Arab, fors, hind va yunon tillarini ham o‘rganib, bu tilda yaratilgan asarlarni ham o‘qiy oladigan bo‘ladi.

Lekin Xorazmiyning vatanidan chetda yashaganligini turlicha sharxlashadi. Chunonchi otasi majusiy koxinlardan bo‘lganligi uchun ham arab mutassibblari uni ta’qib qilganligi sababli u Xorazmni tashlab ketishga majbur bo‘lgan degan fikrlar ham mavjud.

Xorazmiyshunos olim A.Axmedov ta’kidlashicha xalifa Horun ar-Rashidning o‘gli Ma’mun-ar Rashid Marvda xalifa noibi bo‘lganida saroyida juda ko‘p olimlarni to‘plagan, so‘ng xalifa bo‘lib ko‘tarilgach ularni ham Bog‘dodga olib ketgan.

“Baytul Xikma” da matematika, geodeziya, geografiya falakiyat va boshqa sohalar bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi va al-Xorazmiy maktabi yaratiladi. Olimning ayniqsa, matematika faniga oid ilmiy merosi jahon axamiyatiga molik bo‘ldi.

Xalifa al-Ma’mun xatto Muxammad al-Xorazmiy boshchiligidida Hindiston va Rum (Vizantiya) Xazariya (Volganing quyi oqimidagi) gi o‘lkaga bir necha marta ilmiy safarlar uyuştiradi.

Olim insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlarda ilm-fanning muhimligi g‘oyasini ilgari surgan holda pedagogik fikr taraqqiyotida ham munosib o‘rin egallaydi. Xorazmiy matematika, geografiya, geodeziya, falakiyat sohalarida yirik tadqiqotlar olib borgan. Lekin u matematika sohasidagi yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog-uslubiyatchi olim sifatida tarixda qolgan.

Al-Xorazmiy “Al-Jabr val-Muqabala” asari orqali algebra fanining asoschisi sifatida tanilgan. Ushbu asar matematik tenglamalarni yechish, algebraik manipulyatsiyalar va turli soniyarlarni tasniflash bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Al-Xorazmiy algebra tushunchasini yanada rivojlantirib, uni oson

tushuniladigan shaklda bayon etgani uchun uni “algebra” so‘zining kashfiyotchisi deb atashadi.

Risola uch qismdan iborat bo‘lib, birinchisi-algebraik qism uning oxirida savdo muomlasiga oid kichik bir bo‘lim keltiriladi. Ikkinchi - geometrik qism algebraik usul qo‘llab o‘lchashlar haqida, uchinchi qism vasiyatlar haqida bo‘lib, muallif uni “Vasiyatlar kitobi” deb ataydi.

Shu asar tufayli “Al-Xorazmiy” nomi lotincha transkripsiyada “Algoritm” shaklini oldi.

Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi kitobi “Hind arifmetikasi haqida kitob” (“Hisob al hind”)dir. Asar o‘nlik tizimi raqamlari (0,1,2,3,4,5,6,7,8,9) ga bag‘ishlangan.

Olim “Yer satxini o‘lhash” (“Alstrolyabiya”) “Quyosh soati to‘grisida”, “Yaxudiylar tarixi va ularning bayramlarini belgilash” va boshqa asarlari bilan ham fan rivojiga katta xissa qo‘shti. Yuqoridaqilardan xulosa qilib aytish mumkinki, al-Xorazmiy ilmiy bilim ta’lim usullari, ilm-fanga qo‘shgan ulkan hissasi bilan insonni aqliy kamolga yetkazishda, ta’lim-tarbiyada o‘z o‘rniga egadir. Olimning ijodi haqidagi ma’lumotlar ham uning hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlar kabi juda kam saqlanb qolgan. Saqlangan ma’lumotlarga ko‘ra, uning qalamiga mansub asarlarning soni o‘ndan ortiqdir. Lekin bugungi kunda bizgacha 10 asari ma’lumdir.

1. “Hind hisobi haqida” (Fi hisab al-hind). Bu asarni XII asrda Ispaniya olimi Batlik Adelard arab tilidan lotin tiliga tarjima qildi. Keyinchalik Bonkompani, K.Fogel, I.Sevilskiy kabi olimlar ham bu asar bo‘yicha tadqiqot olib bordilar.

Bu risola hisob bo‘yicha qo‘llanma sifatida Yaqin va O‘rta Sharq hamda G‘arbiy Yevropaga katta ta’sir ko‘rsatdi. Lotin tiliga tarjimasida “al-Xorazmiy” so‘zi Algorithmus (Algoritmus) deb yozildi va jahon faniga yangi “algoritm” atama sifatida kiritildi.

2. “Al-jabr va al-muqobala haqida kitob” (Al-kitab al-muxtasar fi hisab al-jabr va-l-muqabala)

Bu asarni XII asrda Ispaniya olimlari Kremonalik Gerardo va Batlik Adelardlar arab tilidan lotin tiliga, keyinchalik Gans va Grantlar esa ingliz tiliga tarjima qilish asosida o‘rgandilar. Bu risola 27 ta bobdan iborat.

3. “Al-Xorazmiy ziji” (ya’ni jadvallari) yoki “Al –Ma’mun ziji”.

Bu risola 37 ta bobdan iborat bo‘lib, uni XII asrda Ispaniyalik olim Batlik Adelard arab tilidan lotin tiliga tarjima qilgan. Keyinchalik olimlardan X.Zuter nemis tiliga, B. Kopelevich esa rus tiliga tarjima qildilar.

4. “Astralyabiyalarni qo‘llash haqida kitob” (Kitab al-amal bi-l-astrulabat). Bu risolada astronomiya faniga oid 43 ta masala hal qilingan.

5. “Usturlob yordamida azimutni aniqlash” (Ma’rif as-samt bil-astrulab). Bu asar haqida X asrda yashagan Ibn Nadimning “Fixrist” asarida tilga olinadi.

6. “Quyosh soati tekisligida soatni ko‘rish haqida” (Amal as-saat fi basit ar-ruhama).

7. “Ustrulobni yasash haqida kitob” (Kitab amal as-astrulab). Mazkur asar ham X asrda yashagan Ibn Nadimning “Fixrist” asarida tilga olinadi.

8. “Quyosh soati haqida kitob” (Kitob ar-ruhama). Bu risola haqidagi ma’lumotlar ham Ibn Nadimning “Fixrist” asarida mavjud.

9. “Jo‘g‘rofiya kitobi” (Kitob surati-ul-ard).

10. “Yahudiylar eralari va bayramlari haqida risola” (Risola fi istixroj ta’rix yahud va a’yodihim). Bu risola AQSh olimi E.Kennedi tomonidan o‘rganilgan.

Xorazmiy nafaqat o‘z davrining buyuk intelektualardan biri, balki ilm-fan tarixida muhim o‘rin tutgan shaxsdir. Uning yutuqlari va kashfiyotlari bugungi kunda ham o‘rganiladi va qadrlanadi. Al-Xorazmiy merosi insoniyat tomonidan e’tirof etilgan va ilm-fan sohasidagi taraqqiyotda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. K.Xoshimov "Pedagogika tarixi" T."O‘zbekiston" 1997 yil.
2. Irisov A. makolasi. Xorazmiy va farobiy, T. Birlashgan nauriyot 1961.
3. S.I.Afonina Matematika va go‘zallik Toshkent , “O‘qituvchi”,1987
4. Matematika o‘qitishda tarixiy malumotlardan foydalanish.
5. Yosh matematiklar ensiklopediyasi.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827496>

Ta’kidlab o‘tishimiz joizki keyingi yillar davomida ham tadbirkorlik qo’llab quvvatlash sezilarli darajada ko‘zga ko‘rina boshladи. 2018 yilga “**Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo’llab-quvvatlash yili**” deb nom berar ekan, “*Chiroyli nom emas, balki amaliy natijalar berish lozim*” ligi haqida mamlakat rahbari ta’kidlab o‘tgan edi.<sup>3</sup> Shunday ekan o‘z-o‘zidan Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlik, biznes va ayiqsa oilaviy tadbirkorlik uchun muhim bir sahifa ochilyotganidan dalolat berilar edi. Shu sababli ham keyingi 7 yil mobaynida tadbirkorlikda sezilarli o‘zgarishlar guvohi bo‘lindi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi, 17.12.2016 yildagi F-4760-son

2 <https://daryo.uz/2018/03/14/2017-yilda-virtual-qabulxona-va-xalq-qabulxonalariga-14-milliondan-ortiq-murojaat-keLIB-tushdi>

3 <https://www.gazeta.uz/oz/2017/12/22/2018-yil/> 2018 yil Tadbirkorlik, innovatsiyalar va texnologiyalar yili deb e’lon qilindi’ maqolasidan parcha

Aholi bandligini oshirish, ishsizlar sonini kamaytirish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida, aholini har tomonlama qo'llab quvvatlash uchun, tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish bo'yicha ham qarorlar imzolandi. Unga ko'ra **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qaroriga quyidagilar belgilab o'tilgan.:**

"Belgilansinki, 2024-yil 1-apreldan boshlab dasturlar doirasida kreditlar o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarga (asosiy ish joyiga ega shaxslar bundan mustasno):

- a) 33 million so'mgacha, bir yildan so'ng ushbu qarz oluvchining tadbirkorlik faoliyati samaradorligi, qarzning maqsadli ishlatilganligi hamda zaruratga qarab guruh kafilligi (kamida 3 nafar fuqaro) bilan qo'shimcha 50 mln so'mgacha revolver asosida;
- b) ushbu kreditlardan tomorqani rivojlantirishning bir nechta yo'nalishlarida (parrandachilik, quyonchilik, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik va ixcham issiqxona) foydalanishi uchun;
- v) yer maydoni 10 sotixdan ortiq bo'lgan tomorqa yer egalariga va ijara chilarga 50 mln so'mgacha garovsiz;
- g) 10 sotixli ixcham issiqxonalarini barpo etish va baliqchilik faoliyatini tashkil etish uchun 100 mln so'mgacha garovsiz ajratiladi.

Bunda:

chorvachilikni rivojlantirish yo'nalishida kreditlar tuman (shahar) veterinariya bo'limi tomonidan identifikatsiya qilingan (birkalash usuli) va haqiqatdan yetkazib berilgan chorva mollarini (qoramol, qo'y, echki) sotib olishga;

aholi tomorqasida biznesni yo'lga qo'yish uchun o'zlarining ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda tadbirkorlik qilishni istagan aholiga issiqxona qurish, chorva mollar boqish, tomorqaga mavsumiy ekinlar ekish uchun kreditlar biriktirilgan bank va hokim yordamchisining ushbu tadbirlar amalga oshirilishi borasidagi kafilligi asosida naqd pulda berilishi mumkin.

Mahallaga biriktirilgan bank va hokim yordamchisi mahalladagi kreditlar hisobiga amalga oshirilayotgan oilaviy tadbirkorlik loyihalarining natijadorligi uchun teng manfaatdor va javobgar bo‘ladi”.<sup>1</sup>

Yuqoridagi qarordan kelib chiqib aytishimiz joizki, aynan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir tijorat banklari tomonidan ajratilishi kerak bo‘lgan kreditlar, shubhasiz oilaviy tadbirkorlik bilan shug‘ullanadigan tadbirkorlaga juda katta qulayliklarni keltirib chiqardi.

**Amaliy jihatidan qaraydigan bo‘lsak O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-55- sonli qaroriga asosan, yagona elektron platforma orqali aholiga o‘zini-o‘zi band qilish uchun kreditlar belgilangan mezonlar asosida skoring baholash natijalariga ko‘ra avtomatlashtirilgan holda kreditlar ajratildi.**

**oilakredit.uz**<sup>2</sup> elektron platformasi orqali murojaat qilgan holda kreditlarni olish haqida ma’lumot berildi.

- **Kredit oluvchi**-“Oilaviy tadbirkorlik” dasturi doirasida imtiyozli kreditlar O‘zbekiston Respublikasi 2021-yil 20-dekabrdagi PQ-55-sonli qaroriga asosan ajratiladi;
- **Kredit maqsadi** - Aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlarning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini oshirish maqsadida xizmatlar va tovarlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish (umumiyligi ovqatlanish va savdo faoliyatida aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun ajratilmaydi);

#### **Muddati va miqdori :**

- **Jismoniy shaxslar uchun** - 33 million so‘mgacha bo‘lgan miqdorda - 6 oylik imtiyozli davr bilan, 36 oygacha bo‘lgan muddatga ajratiladi;
- **Yuridik shaxslar uchun** - 225 million so‘mgacha bo‘lgan miqdorda;

1 <https://lex.uz/uz/docs/-6862227>. Toshkent sh., 2024-yil 2-aprel PQ-149-son.”OILAVIY TADBIRLIKNI RIVOJLANTIRISH DASTURLARI DOIRASIDA AHOLINING BIZNES TASHABBUSLARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA”.

2 <https://oilakredit.uz/>

- Faqatgina, **bog‘dorchilik, uzumchilik, limonchilik**ni tashkil etish uchun 3 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatda kreditlar ajratiladi;
- Foizi - 14%.

### **Yuridik shaxslar uchun ta’milot turi;**

- uchinchi shaxs kafilligi;
- kredit qaytmaslik xatari bo‘yicha sug‘urta polislari;
- likvidli mol-mulk;
- Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasining kafilligi;
- qonun hujjatlari doirasidagi boshqa ta’milot turlari.

### **Kreditni olish uchun;**

- **oilakredit.uz** elektron platformasi orqali murojaat qilinadi;

Kredit olish uchun arizalar barcha bosqichlarda onlayn ko‘rib chiqiladi va har bir bosqichda qabul qilingan qaror to‘g‘risida SMS-xabarnoma, elektron pochta yoki shaxsiy kabinet orqali ma’lumot berib boriladi.<sup>1</sup>

Ma’lumot sifatida aynan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun ham, Biznesni Rivojlantirish Banki<sup>2</sup> **BRB business-woman**<sup>3</sup> nomi ostida kreditlar ajratdi.

### **Tahlil:**

- Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari (keyingi o‘rinlarda-Dasturlar) doirasida aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish va qo‘srimcha daromad manbalarini shakllantirish hamda kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida so‘nggi 6 yilda jami 44 trln so‘mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratilib, 1,9 mln ga yaqin aholining daromad topishga qaratilgan.
- Har mingta xonodonning 193 tasi qo‘srimcha daromad olish imkoniyatiga ega bo‘ldi. 2023 yilda dastur davom ettirilib yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilish uchun, hokim yordamchilar tavsiyalari asosida 472 mingdan ortiq loyihibariga jami 9,9 trln so‘mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratildi.<sup>4</sup>

1 [www.mikrokreditbank.uz](http://www.mikrokreditbank.uz). <https://old.mikrokreditbank.uz/corporate/loan>

2 <https://www.brbb.uz/>

3 <https://brb.uz/jismoniy-shaxslarga/kreditlar/mikrozaym-brb-business-woman>

4 <https://cbu.uz/upload/medialibrary/a53/wn6gcejpkxphv2v4guajin4x01h7iyxa/Yillik-hisobot-2024.pdf>

## Xulosa va takliflar

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, mamlakatda tadbirkorlik, va oilaviy tadbirkorligini davlat tomonidan imtiyozli kreditlar va amaliy yordamlar bilan qo‘llab quvvatlanishi, va ayniqsa ayollar tadbirkorligiga ham yetarlicha e’tibor berilishi orqali, oilaning har bir a’zosida tadbirkorlikga bo‘lgan qiziqish uyg‘otish bilan, aholi o‘rtasida band aholi qatlami ko‘payishiga sabab bo‘lindi. Oilaviy tadbirkorlik bosqichma-bosqich rivojlanar ekan, aholi o‘rtasida o‘z uyining har bir qarichiga bo‘lgan munosabat sezilarli o‘zgara boshladi. Endi faqat dalalarda emas, va balki o‘z uyida ham issiqxonalar tashkil etib, daromad olish yo‘llari ham borligi, bu har bir oilaning oilaviy byudjetiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu o‘rinda mamlakat prezidentini ushbu so‘zlarini o‘rinli deb topdik: “**Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy bo‘ladi**”.<sup>1</sup>

Takliflar:

- 1) Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirar ekanmiz, unda yoshlarning o‘rni juda muhimdir. Bilamizki tadbirkor o‘z daromadini oshirish uchun, unga albatta iqtisodiy bilim zarur, agar unda bu bilim bo‘lmasa, davlat aholiga qancha qulaylik yaratmasin, tadbirkor inqirozga yuz tutishi mumkin. Bu esa o‘z o‘zidan, har bir tadbirkor bilim olishi kerakligi o‘rtaga tashlanadi. Bu muammoni oldini olish uchun, nafaqat poytaxtda yoki viloyat markazlarida va balki kichik uzoq tumanlarda ham iqtisodiy bilim beruvchi kichik 2 yoki 3 oylik kurslar ochilishi orqali, aholi bir qancha bo‘lsada iqtisodiy bilimga ega bo‘lar edi.
- 2) Oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun mahallalarda, “Sen ham tadbirkor bo‘la olasan” shiori ostida mahsus bir kun tashkil etilishi va aholini bu tadbirga jalb qilish orqali. Aholi o‘rtasida tadbirkorlikda muhim burilish bo‘lishi mumkin. Qo‘srimchasiga, ushbu tadbirda ayniqsa ishsiz aholi qatlami qatnashishi bilan, biz ijobjiy natija olishimiz mumkin.

---

<sup>1</sup> <https://www.standart.uz/news/view?id=922> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutqidan parcha.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1) “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki” Yillik hisobot 2023, Toshkent 2024, 57- 58 betlar.
- 2) <https://oilakredit.uz/>
- 3) <https://lex.uz/uz/>
- 4) <https://president.uz/uz>
- 5) <https://brb.uz/>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827660>

## TUSH OSHIQ-MASHUQA QISMATINING BADIY IFODACHISI SIFATIDA

**Umaraliyeva Chinoroy Umarali qizi**

Surxondaryo viloyati Otinsoy tumani 13-maktab o‘qituvchisi

### *ANNOTATSIYA*

*Tush motivi- qadim zamonalardan badiiy tasvir vositasi bo‘lib bu xalq dostonlarida ham, yozma asarlarda ham oshiq-mashuqa qismatining badiiy tasvir etuvchi vosita sifatida xizmat qilgan. Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” asarida tush motivi, uning Otabek va Kumush taqdirini gavdalantirishda muhim vosita ekanligi haqida so‘z yuritiladi.*

#### **Tayanch so‘zlar.**

*Motiv, Qur’oni karim, “O’tkan kunlar”, ramz, detal, badiiy obraz, rahmoniy tush, shaytoniy tush.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Мотив мечты с древних времен являясь средством художественного представления, служил и служит в народном эпосе и произведенных после них произведениях представителем влюбленных судьб. В том числе, в этой статье говорится о произведении “Уткан кунлар”, автором которой является Абдулла Кодирий, именно в этом произведении мотив мечты в олицетворении судьбы Атабека и Кумуша является опорой этого средства.*

#### **Ключевые слова.**

*Мотив, священная книга «Кур’они карим », «Уткан кунлар», символ, деталь, художественный образ, божественный сон, дьявольский сон.*

### **ANNOTATION.**

*The notion of dream has been one of the literar arts in folk eposes and it has served as a picture of people’s fates who are in love with each other. For instance, dream is told as a vital stimul to describe Otabek and Kumush’s fates in ” O’tkan kunlar” By A. Kodiriy.*

#### **Key words.**

*Motive, Qur’ani karim, “O’tkan kunlar”, symbol, detail, literary image, devil dream, rehman dream.*

Insonlar uyqu asnosida ko‘rgan narsalarini, voqea-hodisalarmi tush deymiz”. O‘zbek tilining izohli lug‘ati ”da ham: “Ro‘yo-ko‘rish, tush ko‘rish, tushda ko‘rilgan narsa.” Tush haqida ikki nuqtai nazarga ko‘ra fikr yuritish mumkin:

- 1 Ishonch jihatidan.
- 2 Ilm-fan jihatidan.

Ishonch-e’tiqodga ko‘ra tush haqida gapirilganda, uch xil tush ko‘zga tashlanadi:

- 1.Rahmoniy tushlar.
2. Shaytoniy tushlar.

3. Kundalik voqea hodisalarning ta’siri ostida yoki vujuddagi bezovtalik natijasida yuzaga keluvchi tushlar.

Rahmoniy tushlar-xushxabar yoki ogohlantirish mohiyatida farishtalar vositasida uxlaganlarning ruhlariga ta’sir etuvchi tushlardir. Bu tushlar haq-rostdir va ularga ishonish kerak.

Qur’oni karimda ham ochiq-ravshan tarzda bu xil tushlar haqida so‘z yuritiladi. Bu tushlar odatda yoki biror voqea-hodisa xushxabarini yetkazadi yoxud yuz berajak biror falokatdan ogoh etadi.

Tush motividan xalq og‘zaki ijodida, qadimgi adabiyot namunalarida, mumtoz adabiyotda, ma’rifatchilik adabiyotida, jadid adabiyotida, jumladan, XX-asning 2-yarmi adabiyotida va mustaqillik davri adabiyotlarida ham unumli foydalanilgan.

Shuningdek, O‘zbek milliy romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida asarning bosh qahramonlari Otabek va Kumush qismatini yoritishda tush motividan yuksak mahorat bilan foydalangan. Tush asardagi asosiy voqealar rivojini boshqarishda, oshiq-mashuqa holatini va taqdirini batafsil tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Asarning “Bek oshiq” bobida keltirilgan parchaga diqqatimizni qarataylik<sup>1</sup>: ” Hujra ichiga birmuncha quloq solib o‘tirgandan keyin, uzun tin olib, boshini tirqishdan uzdi, Otabekning pishillab uxlag‘an tovshini eshitib bir darajada tinchlandi. Vasvasadan ariyozg‘an bo‘lsa ham o‘rnidan qo‘zg‘almadi,nima uchundir tag‘in ham sovuqqa junjib o‘ltira berdi. Oradan yana bir nech daqiqa fursat o‘tib, Hasanali tamom tinchlandi ham turib ketmakchi bo‘ldi va shu holatda ichkaridan uyqusirash eshitdi.

- <Qora ko‘zlari,kamon qoshlari...>

- Aaa,-dedi Hasanali va qaytadan qulog‘ini tirqishg‘a olib bordi. Endi uning butun borlig‘i qulog bo‘lib aylangan, o‘zini unutib barcha diqqati hujra ichiga oqg‘an edi. O‘rtadan ko‘p fursat o‘tmadi, boyag‘i uyqusirash yana takrorlardi.

<sup>1</sup> Qodiriy, O‘tkan kunlar “Sharq”nashriyoti, Toshkent 2016.,23-bet

- <Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho‘chib qochishlar....Uff>

- Hasanali uchun birinchida onglashilmay qolg‘on ma’nolar bu keyingi gap bilan yeshildi. Hasanali endigi o‘lturushni ortiqcha topib o‘rnidan turdi, hujrasiga kira ekan, boshini chayqab o‘zicha so‘zlandi:

- Bek oshiq! “.

Bu parchadan anglashilgan holat shuni isbotlaydiki, tush inson ruhiyatining ko‘zgusi, insonning botinida kechayotgan jarayon tushida ham aks etishi, ya’ni uyqu holatida inson ruhiy dunyosining erkinligi, ong osti hislarini aql kabi qolipda saqlab bo‘lmasligi, ulardagi axborot aqliy axborotdan haqqoniyroq ekanini ta’kidlamoqda. Shu sababli uyquda odam rost dunyo bilan to‘qnashadi, uyqu paytidagi faoliyat jismning emas, ma’naviy dunyoning faoliyatidir. Boshqacha aytganda uyg‘oq odamda soxtalik ko‘proq bo‘ladi. Uyqu payti inson haqiqiy hislar bilan yaqinlashadi. Uyqu payti- inson dunyosining eng katta rostgo‘yligidir.

O‘z his-tuyg‘ularini, ichki kechinmalarini yuzaga chiqarishga iymangan o‘zbek yigitini timsoli Otabekning ruhiy holatini tush oshkor qildi. Otabekning bu holatidan Hasanali o‘zining tilidan yoki xat orqali emas aynan tush vositada xabar topadi. Qodiriy o‘zbekona uyat, sharm-hayoni tush motivi orqali tasvirlaydi. Xuddi shu tush tasviri Otabekning hayotiga keskin burilish yasadi.

Asardagi yana bir tush tasviriga diqqatimizni qarataylik:<sup>1</sup> “Otabek shu yo‘sun ivir-jivir, achchiq va chuchuk holat ichida uxbab ketdi. Bir-ikki kun miyonasidagi kechinmalar turlik rang bilan uning uyquliq dimog‘ida akslana boshladilar... Cho‘chib uyg‘ondi...Yonida Kumush...Zaynab yo‘q edi. Uyquliq ko‘zi bilan narigi uyga qulq soldi, hanuz boyag‘i tovushni eshitdi va o‘ng yonini ko‘rpaga bosib ko‘rpaga burkandi, mundan keyin tinchib uxbab ketdi...”

Tush ko‘rar edi: “Chamanda gullar ochilg‘an emish... Bu gulshan uning o‘ziniki emish...Ul rango-rang chechaklardan ko‘zini ololmas emish. Tevarakka kelgan yovdan xavf bor emish... Xanjarini ushlab yovg‘a qarshi chiqg‘an emish...Yov qoqhan emish...Yov orasida onasi ham bor, otasi ham ko‘rinar emish...qaytib chamanga kirsa bir sigir gulni bosib, yanchib o‘tlab yurg‘an emish...Bu holdan o‘zini unutkan va qo‘lidag‘i xanjari bilan sigirga yugirgan emish... Sigir emas sariq sochlik albasti emish... Darmonsizlang‘an va xanjari qo‘lidan tushkan emish... Dunyoni qorong‘uliq bosqan emish...” Bu tush-Otabek uchun ogohlantirish tushidir. Bilamizki, islam dinida o‘ng tomon ibtido sifatida qaraladi. Ishni o‘ngdan boshlash sunnatlardan biri sanaladi. Uyga qadam qo‘yganda birinchi o‘ng oyoq bilan kiriladi, dasturxoniga avval o‘ng qo‘l uzatiladi, namozda avval o‘ng yelkaga salom beriladi. Xo‘sh, Otabek nega aynan o‘ng tomoni bilan uxlaganda shu tushni ko‘rdi? Bu tush rahmoniy tush

<sup>1</sup> Qodiriy ,O‘tkan kunlar “Sharq” nashriyoti,Toshkent.,2016-yil 373-bet.

ekanligini anglatadi va Otabekning qismatini tush orqali o‘ziga a’yon qilish vositasi hisoblanadi.

Asardagi hech bir detal, motiv, ramz tasodifiy emas, ularning har biri yozuvchi tomonidan nimanidir tasvirlovchi vositachisi sifatida asarga olib kiriladi. Tan olib aytish kerakki, Qodiriy tush motivini asarga olib kirish bilan bir qatorda undan samarali, to‘g‘ri va o‘z o‘rnida foydala olgan. Fikimizning isboti sifatida tush tasvirida aks etgan ramzlarga to‘xtalib o‘tsak: tushdagi chaman-Otabekning hayoti bo‘lsa, gullar-kelajagidir. Yov o‘sha-davr va ota-onasi sigirni esa Zaynab deyish mumkin. Otabek farzandli bo‘ldi, hayotining gullagan davri shuning uchun tushida ham gulzor. Tushda yov haqida gap ketar ekan quyidagi gapga e’tiborimizni qaratsak, YOV ORASIDA ONASI HAM BOR... OTASI HAM KO‘RINAR EMISH... Otabekning Zaynabga uylanishi asosan, O‘zbekoyimning va O‘zbekoyimning tazyiqlari natijasi o‘laroq Yusufbek hojining ham boshqa so‘z bilan aytganda bu to‘y “Ota-onal orzusi” emasmidi? Kumush Yusufbek hojining xonadoniga kelgandan keyin uni uzoqroq muddat xonadonlarida olib qolish O‘zbekoyimning orzu-havasi emasmidi? Kumush qolgandan keyin Kumushni Zaynabdan ko‘ra ustunroq qo‘yishi, Yusufbek hoji “Zaynab siz bilan va manim orzu havasimiz emasmi deyishlariga javoban: “Zaynabni xudoy ko‘tarsin, ayb o‘zida...” deguvchi O‘zbekoyim emasmidi? O‘zbek millatida hech qaysi xonadonda ota-onaga “Siz aybdorsiz ” deb farzand tomidan aytilmaydi. Zukko Qodiriy asardagi ota-onalaytirishni uddaladi. Endi tushdagi sigir timsolidagi Zaynabga to‘xtalsak: Zaynab shu kungacha xuddi sigirdek, faqat kundalik mayda tashvishlarga o‘ralashib yurgan, o‘z taqdiriga, o‘z qismatiga butunlay e’tiborsiz edi. Keyin esa u qotilikka qo‘l urdi. Endi u insoniylik darajasidan chiqdi, nimadandir himoyalanish uchun emas, balki oxirini o‘ylamay faqat Kumushdan qutulush uchungina qotillik qildi. Endi u xuddi tushdagidek alvastiga aylandi. Bundan tashqari, yozuvchi alvastining sochini aynan sariq rangda deyishi ham bejiz emas. Bu yerda sariq rang ayriliq ramzi sifatida berilgan va shu rangdagi soch ayriliqning sababchisiga tegishli. Asardagi nafaqat tush motivining to‘g‘ri tanlanishi, balki hamma ramzdan, detaldan o‘z o‘rnida foydalanish yozuvchining mahoratini ko‘rsatib, asarining uzoq vaqt yashovchalik qobiliyatini oshiradi.

Tush inson ruhiy dunyosining ajralmas, murakkab va muhim qismidir. Sharqda qadim zamondan tushga shunchalik teran e’tibor bilan munosabatda bo‘linganki, inson tabiatidan tortib u yegan taomgacha tushga ta’sir qilishi mumkinligini yaxshi bilishgan.

Dunyoda biror badiiy asar yo‘qki unda milliylik ruhi o‘z xalqi mentaliteti aks etmagan bo‘lsa. Yozuvchi badiiy asar g‘oyasini o‘zi yashayotgan jamiyatdan, asar qahramonlarini o‘z atrofidan, undagi detallarni, ramzlarni, motivlarni esa o‘zi ko‘rgan, ishongan va ming yillar davomida o‘z xalqi orasida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan

va qon-qoniga singib ketgan narsalaridan oladi. Haqiqiy yozuvchi hayotda hech qachon bo‘lmagan va bo‘lishi mumkin bo‘lmagan voqelikni, tushunchani,obrazni o‘z asariga kiritmaydi. Adabiyotda ixtiro ya’ni yo‘q narsani bor qilish mavjud emas, adabiyotda kashfiyot bor unda insonlarga noma’lum va mavhum bo‘lgan tushunchalarni gavdalantirish, tasvirlash bor. Adabiyot ana shu kashfiyoti orqali bizning ruhimizga dalda va tarbiyachi bo‘lishi bilan qadrli va ardoqlidir. Qodiriylam o‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan siymolardan, oltin qalam sohiblaridandir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulla Qodiriylam , “O‘tkan kunlar ”, Toshkent, “Sharq ” nashriyoti., 2016
2. Jabbor Eshonqul, “O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini” T.”Fan” nashriyoti.,2011
3. Imom Nablusiy , “Tush ta’birlari to‘plami ” T.,2016
4. Uzoq Jo‘raqulov, “Nazariy poetika masalalari ” T., “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 2015

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827669>

## TRANSLATION PROCESS IN LITERATURE DURING INDEPENDENCE PERIOD

**Ibragimova Rano Isakovna**

doctor of philosophy on philological science, docent, vice rector of Karakalpakstan agriculture and agro technologies institute

*Annotation: Big country artistic system in the composition region literary environment too internal development laws own from the head forgives. Literary process common development principles welded poetic ring certain creative stylistic - formal research qualified perfection, talent level manifestation to be and artistic skill experience softening by means of aesthetic to value achieves. National independence spirituality in the chronicle to the hand included successes, reforms system in Karakalpakstan Uzbek literary life new to stage to raise strong the ground prepares.*

As a poet and writer, Ya. Kochkarov, who created very good works of art, is also known and famous for his significant works in the field of journalism. His journalistic articles and translations are regularly published in the prestigious publications of our Republic Literary critic G'.Mahmud "Yangiboy has enthusiasm and inner enthusiasm. Staying in Karakalpakstan, he wanders around Tashkent and Andijan, Fergana and Namangan, and does not rest. I consider it an incomparable quality that he finds creative people wherever he goes, talks with them, and is passionate about promoting them." 81he admits. Karakalpak writer, child of the people who has been introducing poets to Uzbeks, Uzbek writers and poets, scientists to the people of Karakalpak. His article "Sakkiz burgut syrati" is written about the famous artists of the Uzbek, Karakalpak, Kazakh, Kyrgyz, Avar peoples, while the essay "Muattar Mehr" talks

about the ghazal poet F.Usman. Ya.Kochkarov's essay "A plane tree on the beach" is dedicated to the well-known scientist from Tortkol O.Khudoyberganov. It contains information about the famous people of Tortkol, the essay "Stars on the Moon" and the establishment of the State Award named after Zulfiya, information about the women of Zulfiyakhani's contemporaries and creators, who met her directly, talked to her, and interacted with her at various conferences, from the eight sister and neighboring countries mentioned in the book gives Also, in the book "The World of a Wise Poet", he wrote a good essay about Ollobergan Polat, a famous children's poet from Khorezm, and in his largescale essays and essays, such as "Heroes of Ellikkala", "Aralboyi Azamatlari", he sheds light on the creative works of the children of this country. Ya. Kochkarov is a skilled journalist who has created mature examples in various genres of journalism.

M. Yusupova started her journalistic career very early. His journalistic article "Uzbek Momo" and his journalistic books "Tortkolum - Dur - Gulim" were published. These books contain articles and literary thoughts about achievements in every field of the district.

The poet's books "The Path of Love" (2006), "Taqdir Bitikari" (2021) were published. In the book "Destiny Letters" the thoughts of the poet during her life are summarized in the form of drops. B. Umarov wrote the foreword to the book: "You write sincerely from the heart with emotion. This - half victory! Poetry is an assistant of prose that clicks the necessary strings when the thoughts are not fully conveyed to the heart, to the top of the mind. Your appeal to the creator, your prayer is very bright.

The reader who reads the drops feels sincerity and great pain. This is the pain of self-awareness, the pain of humanity. Below we refer to M. Yusuf drops: It's like I'm another. The Munavvar that bothers me seems to leave his body like me for a week or 2-3 days... I'm sleeping peacefully and living peacefully... fate is over! This is your quiet silence before another test or exam a terrible scream, a roar, seems to be starting the ball. It is also known from history that decisive battles have started in the wake of silence. Who will win the decisive battle? Some kind of power or mine?!

Don't leave me

Let's live as a union.

Our service is excellent.

In the country where you are dying...

Life has everything. And again created in pairs. For example, black and white, sin and reward, long and short, night and day, sun and moon etc. Merciful breath and satanic lust, good and evil are the constant companions of man.

They are sleeping and living... Let them open their eyes wider. Around only the soul of the man who feels that all the beauties are for him will live forever.

A childhood relationship found you. It's like I was born with you.

I live with

You. With you.

Even at the last moment, stay with me, Lord.

The author's poems are closely connected with the idea of trust in the Creator, his attitude to life, conclusions, and thoughts through life events and pictures.

In the science of literary studies, translation is one of the most convenient forms of literary communication. Literature is also enriched through translations. In particular, since the Karakalpak language and Uzbek languages are close to each other, it is convenient to use word-to-word translation as much as possible while preserving the content. In this case, not so big defects are noticeable. Mirtemir paid great attention to the issue of translation in his friendly relations with Karakalpak literature. It is known that he translated the works of Berdaq, the Karakalpak folk epic "Kirqqiz". If the translator treats the literature of that nation with respect, if he loves to study the language of that nation, he will achieve a smooth translation. From this point of view, the preservation of originality, genre features, unchanged description of the lyrical hero's psychology should not be ignored in the translation.

We can see that in the years of independence of Karakalpakstan, significant work was done in the field of translation studies, mature examples of translations from Uzbek to Karakalpak, from Karakalpak to Uzbek, and from Russian to Uzbek were created.

Especially in the work of G.Matyoqubova and Ya.Kochkarov, who are equally creative in two languages, we often find such translations.

Spreading my dream to the whole world,  
I gave my being too sweet hopes,  
I think: What will cast a shadow on them.  
Beauty - smile label,  
Or a slave to tortured passion,  
As you read this humble line,  
They share their secret sorrow.  
My heart is full of excitement...84

As we can see, the poet managed to preserve the content and form of the poem as it was originally. In these verses, the poet believes that sweet dreams and hopes make the whole world beautiful, and nothing can overshadow the full existence of dreams. The poet's heart full of hopes indicates that he is full of good things. A person who reads these lines will be enchanted with the poet's heart full of excitement. Because the person who reads the poem finds the secrets of his heart in these lines. For this reason, such verses are close to the heart of the reader, not only the poet himself. We can say that the poem "Sadness" written by A. Fet is also well translated:

Everywhere in the gray, gloomy sky,  
Let the autumn wind blow the purple cloud.  
The rain hits the glass like stones,  
A storm swirls over the open field.  
Golden leaves disturb the peace of the garden,  
Hazans build a bonfire in front of me.  
Then I will be like autumn,  
Endless sadness fills my heart.

The image of nature in the poem is enriched with symbols such as gray, autumn, cloud, storm, haze. Symbolism is strong in A.Fet's work, the grayness of the sky, the play of clouds, and the sound of rain hitting the glass like a stone; embody the vivid

image of the autumn season before your eyes. It is natural that the leaves falling like gold, the khazans shimmering creating a fiery beautiful appearance, remind that human life also has a khazan season. In the poem, these situations show the human spirit in front of your eyes, skillfully using the means of artistic imagery.

The poet has successfully translated the poems of many Karakalpak poets into Uzbek. In particular, we will get acquainted with the translations into Uzbek of poems from the collection "My Windows" by K. Karimov:

When you trample your soil in bits and pieces,  
The land of birth! Your love, your value is unknown.  
But when I walk away from your warm embrace,  
My eyelashes do not hang at all from longing.  
I walked the fields, climbed the mountains,  
I crossed the rivers to drink water.  
I saw orchards with ripe fruit,  
But your love was drawn to him.

Every verse of this poem written by K.Karimov was translated very skillfully by the poetess. The original content of the poem has been preserved, the words are chosen very correctly, no fault can be found in any of its lines. He translates the beautiful lines from the poet's poem "Maqsad" as follows:

I asked the river: "Is your goal rare?"  
"I will flow in the bosom of rivers."  
I asked the birds: "Is your goal rare?"  
"I fly freely and flap my wings."  
I asked the mountains: "Is your goal rare?"  
"High and high to block the cloud"  
I asked the roads: "Is your goal rare?"  
"Go through the desert, fields, and mountains."85

In this poem, the poet tried to keep the content of each verse as it was originally. He was able to choose the words exactly according to the content.

Translations also played an important role in Ya.Kochkharov's work. The writer created very beautiful translations from Uzbek, Russian, and Karakalpak languages. In particular, he translated into Uzbek the novels of S.Aleksievich "War is a foreign image of a woman" and V.Sumin's "The Last and First Subhidam". Below we will review and analyze the translator's translations from Karakalpak to Uzbek. The poet has a lot of translations of works of Korakalpak poets. One of them is the poem "Landscapes of Bukhara" by U.Khojanov, and we will try to analyze the Uzbek translation of the poem:

The old minor of Bukhara,

A monkey stands out from all of them.

Two mosques are next to each other,

Zarbof wears a tunic.

Years after years passed,

The king came and went.

One trip to the emir,

It was presented in this way.

- How about we start something,

### **Summary:**

In the years of independence, in the literary environment of the region, the desire to freely reflect the feelings of trust and faith in the Creator of the experiences of the human heart increased, and beautiful examples were created in poetic forms;

In the period of independence, the prose genres of the region's literature improved significantly, expanded the objects of artistic images, assimilated the important features of artistic genres into their nature, and the creators common one topic Island topic reflection to continue scientific based on;

Changes in the quality of the prose of the independence period are scientific based on;

Independence period to literature special of subjects the variety of genres rich going, different genre works samples created scientific analyses based on proven.

**Referenses used list**

1. Kochkharov Ya. Welcome to Khorezm. - T.: "New century generation", 2010 - 175 p.
2. Akhmedov M. In Kiprigin hanging standing my It's my soul ... Nukus . "Karakalpakstan", 1995.-120 p
3. Yusufova M. Blooming love or destiny letters. Urganch. "Youth of Khorezm", 2021. -115 p

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827685>

## ATOQLI OTLARNING MADANIYAT VA TARIX BILAN BOG'LIQLIGI

**Nilufar Muhiddinova**

Prezident ta'lim muassalari agentligi

Nurota Ixtisoslashtirilgan maktabi o‘qituvchisi

[nilufarmuhiddinova8998@gmail.com](mailto:nilufarmuhiddinova8998@gmail.com)

**Annotatsiya:** *ma'lum bir xalqlar tillarini qiyoslar ekanmiz, ushbu millatning madaniyati, boy tarixi va boshqa fanlar bilan bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu maqolada nomshunoslik – onomastikaning qiyosiy tilshunoslikdagi dolzarbligi va O'zbek tilshunosligida bu yo'naliш endi rivojlanib kelayotganligi, ayniqsa qiyosiy tadqiqotlar orqali til va madaniyatning o'zaro ta'siri chuqur o'rganilmoqda.*

**Kalit so'zlar:** onomastika, lingvokulturalogiya, nomshunoslik, tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik.

**Annotation:** When comparing the languages of certain nations, we can observe the connection of these nations with their culture, rich history, and other subjects. This article discusses the relevance of onomastics—the study of names—in comparative linguistics and how this field is still developing in Uzbek linguistics. Particularly, through comparative studies, the mutual influence of language and culture is being thoroughly examined.

**Keywords:** onomastics, linguistic cultural studies, name studies, linguistics, comparative linguistics.

**Аннотация:** Сравнивая языки различных народов, мы можем увидеть связь этих наций с их культурой, богатой историей и другими науками. В данной статье рассматривается актуальность ономастики — изучения имён — в сравнительном языкознании, а также то, что это направление еще только развивается в узбекском языкознании. Особенно через сравнительные исследования глубоко изучается взаимное влияние языка и культуры.

**Ключевые слова:** ономастика, лингвокультурология, изучение имён, языкознание, сравнительное языкознание.

**Kirish.** Hozirgi kungacha onomastika ko‘plab tilshunosliklarda alohida lingvistik yo‘nalish sifatida shakllanib, rivojlanib bormoqda. Til va madaniyat, til va etnos, shuningdek, til va mentalitet o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish bilan shug‘ullanadigan ushbu yo‘nalish o‘zbek tilshunosligida ayniqsa qiyosiy tadqiqotlarda endi rivojlanib kelmoqda. Lingvokulturologiya deb nomlanuvchi tilshunoslik yo‘nalishi, ko‘pgina tadqiqotlarda ko‘rsatib o‘tilganidek, tilning kumulyativ funksiyasiga asoslanadi. Bu funksiya orqali ma’lum bir xalqning hayot tajribasi, dunyo haqidagi tasavvurlari va uni bilishga oid his-tuyg‘ulari tilda ifodalanib, avloddan avlodga o‘tadi. Ushbu konsepsiya binoan, til dunyoni konsepsiyalashtirish va inson tajribalarini umumlashtirishning, shuningdek, dunyo haqidagi bilimlar hamda jamiyat tarixidagi ijtimoiy ahamiyatli voqealarni saqlashning ilk shakli sifatida qaraladi. Taniqli sotsiolog olim Robert Uatnou o‘zining "Xalqning hayotiy lug‘ati" (Vocabularies of Public Life) nomli kitobi kirish qismida shunday yozadi: - Bizning asrimizda, madaniyatni tahlil qilish ehtimol barcha boshqa davrlardagiga nisbatan ko‘proq inson haqidagi fanlarning markazida turibdi. Bunday toifadagi tadqiqotlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning fanlararo xarakterga ega ekanligidir. Antropologiya, adabiy tanqid, siyosiy falsafa, dinlarni o‘rganish, madaniyat tarixi va kognitiv psixologiya bu borada boy manbalarga, xulosalarga ega va ulardan yangi g‘oyalarni izlab topish mumkin [1;-R. 280].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XX asrning 60-70-yillarida taniqli rus tilshunosi A.V.Superanskaya atoqli otlarning tilshunoslikda (ayniqsa, chet el tilshunosligida) o‘rganilish tarixi bilan maxsus shug‘ullandi, hamda «Atoqli otlarning umumiyl nazariyasi» nomli yirik tadqiqotini e’lon qildi. Ismlar o‘z ob’ekti haqida ma’lum bir axborotlarni berishi mumkin degan fikrni olg‘a surish barobarida, professor A.V.Superanskaya ushbu axborotlarning uch tipini qayd qilib o‘tadi: 1) lisoniy, ya’ni til birligi sifatida ular shaxslarni atashga, individlarni bir–biridan ajratishga xizmat qiladi; 2) nutqiy, ya’ni ushbu axborot turida so‘zlovchining shu ismga munosabati ifodalanadi; 3) qomusiy, qomusiy informatsiya esa antroponim asoslagan apellyativ

ma'noga yaqinlashadi (Nazokat ismida noziklik, noz semalari dominantlik qiladi) (Superanskaya A.V. Obshaya teoriya imeni sobstvennogo. M.,1973).

Shundan keyin V.A.Nikonovning "Ism va jamiyat" (1974), A.Karpenkoning "Atoqli va turdosh otlarni farklashning nazariy asoslari" (1975), A.D.Zverevning "Atoqli va turdosh otlar haqida" (1976), I.I.Kovalikning "Ukrain tilida atoqli va turdosh otlar" (1977) nomli asarlari e'lon qilindi; "Atoqli va turdosh otlar" nomli alohida ilmiy to'plam nashr etildi (1978). Taniqli olim A.A.Reformatskiy o'z vaqtida atoqli va turdosh otlarni quyidagicha farqlashni taklif etgan edi: atoqli otlar birinchi navbatda nominativ funksiyaga ega, ya'ni muayyan predmetlarni, narsa-hodisalarni alohida nomlash uchun xizmat qiladi, turdosh otlar esa semasiologik, ya'ni ifodalovchi funksiyani bajaradi, ya'ni ular predmet, voqeа-hodisalarni nomlash bilan birga ular hidagi tushunchani xam bildiradi. inson va narsalarning nomi ularga xos bo'lgan tabiatlaridan kelib chiqqan holda, ayniqsa, tabiatlaridagi muhim xususiyatlarga urg'u berilgan holda o'zlashtiriladi degan faraz ko'pgina filosof va tilshunos olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topdi (Losev 1990; Lotman 1971; Toporov 1989; Florenskiy 2000).

O'zbek tilshunosligida atoqli otlar tizimini o'rganish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, E. Begmatov, N. Husanov, G. Sattorov, S. Rahimov, I. Xudoynazarov, R. Xudoyberganov va boshqalar o'zbek antroponimlari haqidagi materiallarni to'plashga, leksik va semantik xususiyatlari, lingvistik tuzilishi, ismlarning etnografik va motivatsion ma'nolarini o'rganish, o'zbek mintaqaviy antroponimiyasining o'ziga xos tomonlarini kuzatish, ismlarning orfografik va izohli lug'atlarini tuzish sohalariga munosib hissa qo'shishgan. Biroq, o'zbek antroponimiyasining paydo bo'lishi va rivojlanishi, ismlarning nominativ xususiyatlari, nomlashning motivatsion asoslari, lingvistik va nolingvistik tamoyillarning roli, antroponomiyanı sotsiologik nuqtai nazardan ilmiy o'rganish kabi muammolar hanuzgacha tegishli tadqiqotchilarni kutmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ingliz tilshunosi Alan Gardinerning "Atoqli otlar nazariyasi" (1954) asari onomastika fanini yangi bosqichga olib chiqdi. U Dj. Millning

atoqli otlar ma'noga ega emas degan fikrini rivojlantirib, atoqli otlar aslida o'ziga xos nomlar ekanini va ular predmet yoki voqeа-hodisaga oid aniq, konkret tasavvurlarni ifodalashini ta'kidladi. [2;-A. 119]. Shu nuqtai nazardan atoqli otlar ikki turga bo'linadi: a) mujassamlanuvchi, ya'ni timsol bo'la oluvchi atoqli otlar; b) mujassamlanmovchi, ya'ni timsol bo'la olmaydigan atoqli otlar. Masalan, Vilyam Shekspir va Temza daryosi mujassamlanuvchi atoqli otlar guruhiga kiradi, chunki ular ma'lum bir shaxs (bu yerda buyuk dramaturg) yoki geografik ob'ekt (daryo) haqida umumiylar, yaxlit tasavvur beradi. Agar biz faqat "Vilyam" desak, bu shunchaki bir kishi ismi bo'lib, umumiylar bir tasavvurni ifodalaydi. Tarixiy nuqtai nazardan olib qaraganda, mujassamlanuvchi atoqli otlar avvalroq paydo bo'lgan.

Misol uchun, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi antroponomalar mujassamlanuvchi atoqli otlar guruhiga kiradi, chunki ular mamlakatimiz tarixida, davlat va madaniyatida muhim o'rinn tutgan mashhur shaxslar haqidagi timsollarni o'zida mujassamlashtiradi. Ota-onalar o'z farzandlarini shunday mashhur shaxslarga o'xshashini istab, Temur, Temurbek, Ulug'bek, Alisher, Bobur kabi ismlarni qo'yganlar, bu esa mujassamlanmovchi atoqli otlar qatoriga kiradi. Bunday qarashlar tilshunoslikda atoqli otlarga abstrakt-mantiqiy va konkret-tarixiy nuqtai nazardan yondashuvni shakllantirdi.

Antroponimiyanı tashkil qiluvchi nomlar quyidagi atoqli otlardan tashkil topadi:

1. Ismlar.
2. Laqablar.
3. Familiyalar.
4. Otaismilar.
5. Taxalluslar.
6. Shaxsni nomlashning boshqa xil tarixiy shakllari.

"Familiyalar sizning oilangiz tarixi haqida ko'p narsalarni ochib berishi mumkin, ammo ular noto'g'ri ma'lumotlar koniga aylanishi ham mumkin." degan edi Pol Bleyk o'z maqolasida : - Sizning familiyangiz qayerdan kelib chiqqanligi yoki odamlar familiyalarini qachondan va nima uchun ishlatishni boshlaganlari bilan hech qiziqqanmisiz? Men "Gateway" darsligidan "Oila ismlari" bo'yicha dars o'tayotgan paytimda ingliz familiyalarini va ularning kelib chiqishi haqidagi maqolaga duch keldim, bu mavzuga qiziqib qoldim va uni o'rganishga qaror qildim. Ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda familiyalar odatda "last name" so'zma so'z 'so'nggi

ism' de gan ma'noni bildiradi, yoki "surname" deb nomlanadi, chunki avval ism, so'ngra familiya yoziladi. Men hatto ba'zi yozuvchilar tomonidan berilgan ism "given name" so'zma so'z "tug'ilganda berilgan ism" yoki "forenames" so'zma so'z "oldinda keluvchi ism" orqali ifodalanishini ko'rdim [3;-P. 237].

**Tahlil va natijalar.** Onomastika sohasining ko'plab tilshunoslik yo'nalishlarida alohida bir soha sifatida shakllanib rivojlanishi til va madaniyat, til va etnos, shuningdek, til va mentalitet o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni o'rganishga yo'naltirilgan. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalish endi rivojlanib kelmoqda, ayniqsa qiyosiy tadqiqotlar orqali til va madaniyatning o'zaro ta'siri chuqur o'rganilmoqda. Lingvokulturologiya deb nomlanuvchi bu tilshunoslik yo'nalishi tilning kumulyativ funksiyasiga asoslanadi. Kumulyativ funksiya orqali xalqning hayotiy tajribalari, dunyo haqidagi tasavvurlari va uni bilishga oid his-tuyg'ulari til orqali ifodalanib, avloddan avlodga o'tadi. Bu nuqtai nazaridan til nafaqat muloqot vositasi, balki dunyoni konsepsiyalashtirish va inson tajribalarini umumlashtirish uchun asosiy vosita hisoblanadi. Shu orqali til, jamiyatda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan voqealarni va tarixiy hodisalarni saqlash va yetkazishning ilk shakli sifatida qaraladi. Tilshunoslikda atoqli otlarga yondashuv abstrakt-mantiqiy va konkret-tarixiy asosda shakllandi. Atoqli otlar nominativ funksiyaga ega bo'lib, ma'lum predmetlar va hodisalarni alohida nomlash uchun xizmat qiladi. Turkum otlar esa semasiologik funksiyaga ega bo'lib, predmet yoki hodisalar haqida tushunchani ifodalaydi. Bu nuqtai nazar atoqli otlar va turdosh otlarning funksiyalari orasidagi farqni belgilaydi. Atoqli otlar, ularning predmet yoki shaxs haqidagi aniq timsollash funksiyasi orqali, tilning ma'lumotni saqlash va uzatishdagi roli muhimligini ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu tadqiqotlar atoqli otlar tizimi va ularning lingvistik hamda sotsiologik jihatlarini o'rganishga xizmat qiladi. Ular tilning nafaqat muloqot vositasi, balki madaniyatni uzatish va saqlashning muhim qismi ekanligini namoyish etadi. Atoqli otlar orqali biz jamiyatning tarixiy, madaniy va ijtimoiy tuzilishini chuqurroq tushunishimiz mumkin.

Umumiy qilib aytganda, bu tahlillar tilning insoniyat tajribasi va dunyoqarashini qanday saqlashi va yetkazishini, shuningdek, til orqali shaxs va jamiyatni qanday tasavvur qilishimiz mumkinligini ko‘rsatadi. Atoqli otlarning lingvistik va madaniy ahamiyati, ularni o‘rganishning turli yondashuvlari orqali yanada chuqurroq anglash mumkin.

Qo‘sishimcha sifatida shuni ham aytib o‘tish kerakki, o‘zbek antroponimiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, ismlarning nominativ xususiyatlari, nomlashning motivatsion asoslari, lingvistik va nolingvistik tamoyillarning roli, antroponomiyani sotsiologik nuqtai nazardan ilmiy o‘rganish kabi muammolar hanuzgacha tegishli tadqiqotchilarni kutmoqda.

## ADABIYOTLAR

1. Wuthnow R. Vocabulary of Public Life. – London: Routledge, 2002. – 280 p.
2. Alan Gardiner – “Atoqli otlar nazariyasi”, 1954. p.110
3. P.B. Redmonds (2002), “Surnames in Genealogy: A New Approach”, Federation of Family History Societies, p.p:237.

## TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	<b>Asqarxo'jaeva, M. S. qizi . (2024). TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIMNING O'RNI. GOLDEN BRAIN, 2(16), 4–7. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.13827100">https://doi.org/10.5281/zenodo.13827100</a></b>
2	<b>Turanov, D. A. (2024). YURIDIK KADRLARNI TAYYORLASHDA RIM HUQUQI FANINING AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 2(16), 8–13. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.13827119">https://doi.org/10.5281/zenodo.13827119</a></b>
3	<b>Dadabayeva Hayotxon. (2024). INTERNATIONAL ASSESSMENT PIRLS. GOLDEN BRAIN, 2(16), 14–18. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.13827135">https://doi.org/10.5281/zenodo.13827135</a></b>
4	<b>Эрманбетова, Ш. Б. (2024). ҲАБИБ САҶДУЛЛА ШЕЪРИЯТИДА ПОЭТИК СИНТАКСИС. GOLDEN BRAIN, 2(16), 19–25. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.13827163">https://doi.org/10.5281/zenodo.13827163</a></b>
5	<b>Sunatov, J. T. o'g'li ., Xayriddinov, S. B., &amp; Rasilova, A. I. qizi . (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASINING BUGUNGI KUNDA JAHONDAGI AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 2(16), 26–30. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.13827200">https://doi.org/10.5281/zenodo.13827200</a></b>
6	<b>Suvonov Behruz Iskandar o'g'li , &amp; Jurayev, O. M. o'g'li . (2024). VIRTUAL O'YINLARNING YOSHLAR ONGGIGA TA'SIRI. GOLDEN BRAIN, 2(16), 31–35. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.13827326">https://doi.org/10.5281/zenodo.13827326</a></b>
7	<b>Xidirova, N. B., Islomov, A. I. o'g'li ., &amp; Bozorova, R. (2024). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA PSIXOLOGIYADAGI ROLI. GOLDEN BRAIN, 2(16), 36–41. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.13827387">https://doi.org/10.5281/zenodo.13827387</a></b>
8	<b>Xayriddinov Shavkat Botirovich, &amp; Suvonov, B. I. o'g'li . (2024). PERFORM ADDITION AND MULTIPLICATION OPERATIONS IN EXCEL. GOLDEN BRAIN, 2(16), 42–46. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.13827409">https://doi.org/10.5281/zenodo.13827409</a></b>

**9**

Jurayev, O. M. o'g'li , Sunatov, J. T. o'g'li , & Jamilova, S. S. qizi . (2024). INGLIZ TILINING O'ZBEKISTONDAGI AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 2(16), 47–51. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827432>

**10**

Temirov, X. J., & Ismailov, U. O. o'g'li . (2024). MAKTAB VA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI BAHOLASH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH. GOLDEN BRAIN, 2(16), 52–56. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827466>

**11**

Meyliyeva, Z. X. (2024). MUXAMMAD IBN AL-XORAZMIY – QOMUSIY OLIM VA ALGEBRA FANI ASOSCHISI. GOLDEN BRAIN, 2(16), 57–61. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827492>

**12**

Чарыева, Д. А. (2024). ВЛИЯНИЕ МЕСТНЫХ ЯЗЫКОВ В ОСВЕЩЕНИИ ЛЕКСИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ УЗБЕКСКОГО И ТУРКМЕНСКОГО ДИАЛЕКТОВ КАШКАДАРЬИНСКОЙ, ХОРЕЗМСКОЙ И ЛЕБАБСКОЙ ОБЛАСТЕЙ. GOLDEN BRAIN, 2(16), 62–66. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827496>

**13**

Раджабова, Д. А. (2024). ТЕХНИКА ИГРЫ НА ФОРТЕПИАНО: АНАЛИЗ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ И ИХ ЭФФЕКТИВНОСТЬ. GOLDEN BRAIN, 2(16), 67–70. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827505>

**14**

Назирова, У. Н. (2024). ПОДДЕРЖКА ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ЧЕРЕЗ ЛИТЕРАТУРУ И ИСКУССТВО. GOLDEN BRAIN, 2(16), 71–75. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827514>

**15**

Qutlimuratov, Y. Q., Abdinasirova, N. A., & Xojanova, A. J. (2024). QAROR QABUL QILISHDA MA'LUMOTLARNI EKSPORT VA IMPORT QILISHNING BIR USULI HAQIDA. GOLDEN BRAIN, 2(16), 76–80. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827538>

**16**

Saidazimkhon Shodikhonov. (2024). LEXICOGRAPHY AND SEMANTICS OF MILITARY TERMS: A COMPARATIVE STUDY IN RUSSIAN AND ENGLISH. GOLDEN BRAIN, 2(16), 81–84. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827603>

17

**To'rayeva Nozliya. (2024). QASHQADARYO OKRUGINING MARKAZI SIFATIDA QARSHI SHAHRINING RIVOJLANISH TARIXI. GOLDEN BRAIN, 2(16), 85–90. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827628>**

18

**Sayfullayeva, N. F. qizi ., & Esonova, S. A. qizi . (2024). O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK, OILAVIY TADBIRKORLIK VA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYATLAR VA. GOLDEN BRAIN, 2(16), 91–97. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827643>**

19

**Umaraliyeva, C. U. qizi . (2024). TUSH OSHIQ-MASHUQA QISMATINING BADIY IFODACHISI SIFATIDA. GOLDEN BRAIN, 2(16), 98–102. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827660>**

20

**Ibragimova, R. I. (2024). TRANSLATION PROCESS IN LITERATURE DURING INDEPENDENCE PERIOD. GOLDEN BRAIN, 2(16), 103–109. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827669>**

21

**Muhiddinova, N. (2024). ATOQLI OTLARNING MADANIYAT VA TARIX BILAN BOG'LIQLIGI. GOLDEN BRAIN, 2(16), 110–115. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827685>**